

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY G‘OYA, MA‘NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA‘LIMI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK №342.4(572.1)262.1

Raxmatova Nargiza Akbar qizi

**“O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunuchiligida jamiyat,
davlat, inson huquqiy munosabatlarini ta‘minlovchi
ma‘naviy tamoyillar”**

Mavzusida

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar _____ dots.X.Maxmanova

Qarshi –2015

Mundarija

KIRISH.....	3
I-BOB. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligida ma'naviy tamoyillarning o'rni.....	6
1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarda Sharq va G'arb mumtoz mutafakkirlari asarlarida adolat to'g'risidagi qarashlarining hisobga olinishi.....	6
1.2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida milliylik va umuminsoniy tamoyillarining aks etishi.....	18
I-Bob.bo'yicha xulosa.....	25
II-Bob.O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlarning chuqurlashuv jarayonida qonunchilik tizimining yanada insonparvarlashuvi.....	27
2.1.Jamiyat taraqqiyoti jarayonida huquqning insonparvarlashi.....	27
2.2.O'zbekiston Respublikasi qonunlarida inson huquqlarining himoya qilishni qonunlarda mustahkamlanishi.....	32
II-Bob.bo'yicha xulosa.....	40
III Bob.O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ma'naviy huquqiy ahamiyati.....	41
3.1.Sud-huquq tizimi islohotlarini chuqurlashtirish va qonunchilik bazasini boyitish va takomillashtirish.....	41
3.2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yuzasidan olg'a surilgan tashabbuslar	
III-Bob.bo'yicha xulosa.....	60

Xulosa

Adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat, davlat shaxs, inson munosabatlari nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy mazmunga, shuningdek ma'naviy mazmunga ham ega. Odatda ko'p hollarda bu munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jihatlari o'rganiladi. Masalaning ma'naviy tomonlarini tadqiq etishga e'tibor yetarlicha emas. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchilgida ma'naviy tamoyillarning aks etishiga tadqiqotchilar jiddiy e'tibor qaratganlari yo'q. Shu sababli tadqiqot mavzuning dolzarbligini quyidagilar bilan belgilash mumkin:

Birinchidan, bugun yurtimizda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida jadal demokratik islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda demokratiyani, inson omilini yanada rivojlantirish, siyosiy jarayonga aholini keng jalb etish, islohotlarning samaradorligini oshirish, davlatimiz rahbari belgilab bergan ustuvor yo'nalish va vazifalarni amalga oshirish qonunchilik va sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish va insonparvarlashtirish ma'naviyat yuksalishiga, ma'naviy me'yorlarning jamiyat onggiga va ijtimoiy amaliyotga nechog'lik singishiga bog'liq.

Ikkinchidan, Ma'naviyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy hayot bilan bog'liqligi, ma'naviy, axloqiy tamoyillarning Konstitutsiyamiz va qonunchiligimizda hisobga olinish darajasi alohida o'rganilmagan, alohida tadqiqot mavzusiga aylanmagan. Vaholanki, jamiyat, davlat va inson (shaxs) munosabatlarida, ularni tartibga soluvchi yuridek meyorlarda ezgulik, adolat, insonparvarlik, halollik, insoflilik, diyonat, vijdon erkinligi, shaxs daxlsizligi, fuqarolarning millatidan, tilidan, dinidan ijtimoiy ahvolidan hamda jinsidan qat'i nazar teng huquqli katta ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, Ushbu masalalarini maxsus tadqiq etish O'zbekiston Konstitutsiyasi va qonunchiligining insonparvarlik mohiyatini teranroq anglab olishga, ma'naviy, siyosiy-huquqiy tarbiyani yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligini ma'naviy meyorlarini aks ettirishini o'rganish tashkil qiladi. Ushbu masalaning Ezgulik, yaxshilik, adolat, insonparvarlik, halollik, burch, vijdon, diyonat kabi inson komilligini ifodalovchi axloqiy tushunchalar ijtimoiy tenglik, teng huquqlilik, demokratiya, kabi tamoyillar nuqtai nazaridan tahlil qilinishi tadqiqotning predmetini tashkil qiladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va bazi bir qonun meyorlarini ma'naviylik, ma'naviy yuksalish bilan bog'lab o'rganish.

O'zbekistonda bu borada qilinayotgan ishlarning insonparvarlik adolat, teng – tuquqlilik mohiyatini ochib berish.

Tadqiqoti oldiga uning maqsadidan kelib chiqib qo'yidagi vazifalarni qo'ydik:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarda Sharq va G'arb mumtoz mutafakkirlari asarlarida adolat to'g'risidagi qarashlarning hisobga olinishini o'ragnish va ilmiy tahlil qilish.
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida milliylik hamda umuminsoniy tamoyillarining aks etishini qiyosiy tahlil qilish;
- Jamiyat taraqqiyoti jarayonida huquqning insonparvarlashuvini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ahamiyatga olinishini o'rganish.
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida inson huquqlarining himoya qilinishini qonunlarda mustahkamlanishini o'rganish.
- Sud huquq tizimini islohotlarini chuqurlashtirish va qonunchilik bazasini boyitish va takomillashtirish.
- Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yuzasidan olg'a surilgan tashabbuslar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ma'naviy mazmunini ilk bor alohida o'rganilmoqda. Ularning ezgulik, insonparvarlik, adolat, kabi umjuminsoniy meyorlarga hamda ajdodlarimiz davlatchilik tajribasi, urf-odatlarini qatorida jahon xalqlari davlatchiligi tajribasi, demokratik qadriyatlarga tayanilgani ochib berilgan.

Tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari nafaqat siyosiy va yuridek jihatdan, shuningdek ma'naviy jihatdan ham chuqurroq tushunishga yordam beradi. O'z navbatida bu huquqiy tarbiya samaradorligini ko'tarishga, aholida ayniqsa yoshlarda Konstitutsiyamiz va qonunlarimizga ijobiy munosabat kuchayishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Tadqiqotning masalalari va farazlari uning oldiga qo'ygan vazifalari bilan bog'liq.

1-faraz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarda Sharq va G'arb mutafakkirlarining ko'p asrlik ilg'or g'oyalari ijtimoiy munosabatlarni baholovchi va tartibga soluvchi me'yorlar va tamoyillarni hisobga olinganligi;

2-faraz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlari milliylik va umuminsoniylik birligi asosida yartilganligi;

3-faraz. Sud huquq tizimini liberallashtirish jarayonida ularning insonparvarlashuvini rivojlantirish va salohiyatini yanada kengaytirish.

4-faraz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlari huquqiy va yuridek shu bilan birga u ma'naviy ahamiyatga ega uning ma'naviy tomonlarini anglash huquqiy madaniyatni oshirishni osonlashtiradi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharxi (taxlili): Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida xalqimizning tinch, osoyishta yashashlari ularning orzu umidlarini ro'yobga chiqarish belgilangan. Islohotlarimizda, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish uchun barcha o'zgarishlar, shuningdek yangilanishlarning markazida eng avvalo, inson, uning manfaatlari qo'yilgan. Prezidentimiz Islom.Karimov islohotlar avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerakligi mamlakatimizda

amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinadigan qonunlar avvalo inson uning manfaatlarini asosidaligini o'z asarlarida ma'ruzalarida¹ takidlab o'tadilar. Ushbu maqsadda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida inson manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida baholanadi. Mustaqillikka erishgandan so'ng qisqa muddat ichida o'z Konstitutsiyamizga hamda bir qator qonunlarimizga² ega bo'ldik. Qabul qilinadigan qonunlarimiz shaxs va davlat munosabatlarini adolatli bo'lishini hamda teng huquqliligini ta'minlaydi. Har bir shaxs o'z huquqini yaxshi bilishi va unga rioya qilib hurmat qilishi osoyishtalik va farovonlikning zarur sharti va muhim omilidir. Adolat tamoyili o'zoq vaqtlardan beri barcha mutafakkir, allomalarni qiziqtib kelgan. Bulardan Alisher Navoiy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, G'arb mutafakkirlaridan N.Makiavelli, Sh.Monteskyo, J.J.Russo, Volter, Sharl Fure, O.E.Robert, Artur Shopengaurldir. Ular o'z asarlarida davlat va xalq munosabatlari, ularning vazifalari haqida, adolat to'g'risida qiziqarli fikrlarini bildiradilar. Milloddan avvalgi 551-479 yillarda Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri faylasuf Konfutsiy hukmdor va xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatni qiyosiy tarzda asrlarida chiroyli ifoda etgan³. Adolat, insonparvarlik, teng huquqlilik, ezgulik,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008y., 106-b// Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O'zbekiston”, 1997.// Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O'zbekiston”, 1998. // Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: “O'zbekiston”, 2000. // Karimov I.A. Yuksak huquqiy tafakkur – demokratik jamiyat taqozosi // , Xafsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. T.6. – “O'zbekiston” 1998// Karimov I.A. Donishmand xalqimning irodasiga ishonaman. “Fidokor”, 2008y 8 iyun. // Karimov I.A. Milliy istiqbol mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: “O'zbekiston”, 2000.// Karimov I.A. Xozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari //Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5. - T.: “O'zbekiston”, 1997.// Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - T.: “O'zbekiston”, 1999.// Karimov I.A Adolat – qonun ustuvorligida // Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T. 10. -T.: “O'zbekiston”, 2002. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishva fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari // Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. - T.: “O'zbekiston”, 2003.

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.T. “O'zbekiston ”nashriyoti matbaa ijodiy uyi. 2014y // O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi T “Adolat” 2012 yil // O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi T. “Adolat” 2010 yil // O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi T. “Adolat” 2010 yil // Kodekslar to'plamidan T.:“Adolat”2014yil // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning “O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzuidagi ma'ruzasini o'rganish “Qarshi davlat universiteti” nashriyoti 2011y.// O'zbekiston Respublikasining sudlar to'g'risidagi qonuni T. “Adolat” 2014

³ Alisher Navoiy. “Xamsa”, “Yangi avlod”, 2014// Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” T. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2012y // Konfutsiy muhokama va bayon Y., “Yangi asr avlodi” 2013y

diyosat, vijdon kabi ma'naviy tamoyillar huquqiy hamda axloqiy ahamiyatga egadir. Shu bilan birga "axloqiy talab huquqiy qonun qoidalarida o'z aksini topadi deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ekanini tasdiqlab turibmiz"¹. bu kabi ma'naviy tamoyillarning hisobga olinishi inson huquqlarning oliy qadriyat sifatida baholanishdir².

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mavzuga doir normativ xujjatlar, qabul qilingan qonunlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asrlari. Tadqiqotning nazariy asoslarini mavzuga doir darslik o'quv-uslubiy adabiyotlar O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi va chiqarilgan maqolalar nazariy asos sifatida o'rganilgan

Tadqiqot natijalarining nazariy amaliy ahamiyati: Mazkur tadqiqot ishi Konstitutsiya va qonunlarining ma'naviy tamoyilar bilan bog'liqligi ochib berilgan. Naziriy va amaliy ahamiyati Konstitutsiyani va qonunlarni o'rganishda jarayonida ma'naviy tamoyilar bilan o'rganish uni tushunishni osonlashtiradi.

Ish tuzilmasining tavsifi: Mazkur ish kirish, uchta bob, 6 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

¹ A. Sher. Axloqshunoslik. T., "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" 2010y., 231-b

² Inson huquqlari umumiy nazariyasi T.: 2012 // Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar. to'plam A.X.Saidov T.: "Adolat" 2004y // O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaroshartnomalar A.X.Saidov T.: "Adolat" 2002y

I-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI VA QONUNCHILIGIDA MA'NAVY TAMOYILLARNING O'RNI

1.1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya va qonunlarda Sharq va G'arb mumtoz mutafakkirlari asarlarida adolat to'g'risidagi qarashlarining hisobga olinishi

Mustaqillikni mustahkamlash jarayonida yurtimiz huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish borasida o'zining milliy taraqqiyot yo'lini tanlash hamda asosiysi, qisqa muddatda Konstitutsiyaning qabul qilinishi eng muhim qadam hisoblanadi. Tarixiy hujjat – hayotimizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan uzoq strategik maqsad, ya'ni huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish chora-tadbirlari izchil hamda qattiy qonuniy tus oldi. O'tgan davrda jamiyat hayoti va kelajagini belgilab beradigan qonunlar yaratildi, huquq-tartiboti idoralari mustahkamlandi, ijtimoiy himoyaga bo'lgan e'tibor kuchaytirilib, u yangicha tizim asosida qayta barpo etildi. Ayni paytda iqtisodiyot bilan bir qatorda, ijtimoiy soha va ma'naviyatni qamrab olgan butun dunyo “o'zbek modeli” sifatida tan olgan taraqqiyot modeli ishlab chiqildi. Taraqqiyot modelini qo'llashda davlatimiz islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanladi. Bu yo'lni tanlash eng avvalo, xalq manfaatlaridan kelib chiqib, uning moddiy turmush sharoitini yaxshilashga, milliy-ma'naviy qiyofasini tiklanishi va yukasalishi uchun tanlangan eng to'g'ri yo'l edi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida xalqimizning tinch, osoyishta yashashlari ularning orzu umidlarini ro'yobga chiqarish belgilangan. Islohotlarimizda, o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish uchun barcha o'zgarishlar, shuningdek yangilanishlarning markazida eng avvalo, inson, uning manfaatlari qo'yilgan. Islohotlar Prezidentimiz I.Karimov takidlaganidek “Islohotlar-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning

farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak”¹. Ushbu maqsadda amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida inson manfaatlari eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Inson huquqlari va erkinliklari adolat tamoyilga asoslanadi. Adolat davlat va huquqning asosiy tarozisidir. Shu sababdan Amir Temur o‘z hayoti va faoliyatida “Kuch – adolatda” hikmatiga amal qilib, uni o‘ziga shior deb olgan. Jamiyat hayoti va inson hayoti tenglik tamoyili asosida shakllantirish uchun adolat va xolislik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Adolat, birinchi navbatda, qonunning insonparvar xolis va taraqqiyotparvar bo‘lishini taqozo etadi. Shuningdek, adolat qonunning barchaga birday bo‘lishini, fuqarolarning barcha qatlamlariga barobar xizmat qilishini, odamlarni teng ko‘rishini hamda fuqarolarning ham qonun oldidagi tengligini anglatadi. Adolat ushbu jihatdan qonunning insonparvarligi va ustuvorligidir. Barchaning qonun oldida tengligini amalga oshirish davlat, jamiyat va inson munosabatlarining barqarorligini ta’minlaydi va ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu ma’nodan adolat ma’naviy kuchga aylanadi. U shaxs va jamiyatni, jamiyat munosabatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Inson muayyan qonun yoki huquqni adolatli deb hisoblasa unga ijobiy munosabatda bo‘ladi va ixtiyoriy ravishda unga rioya etadi. Adolat tamoyili huquqda ezgulik, insonparvarlik, o‘zaro tenglik va umuman axloqiylik haqqoniylikni yuzaga chiqaruvchi tamoyildir. Adolat tufayli huquq ma’naviylik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini yaratishda 2 asosga tayaniladi.

Birinchi; xalqimizning asriy tajribasi davlatchiligimiz tarixida qo‘llanilgan muhim tamoyillar, meyorlar, ma’naviy qadriyatlar bo‘lsa.

Ikkinchi; umuminsoniy qadriyatlardir.

Ma’lumki huquq, qonunlar, meyorlar o‘z ijtimoiy vazifasiga ko‘ra axloqqa o‘xshab ketadi. Ular ham axloq kabi odamlar o‘rtasida o‘zaro

¹ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch . T.: “Ma’naviyat”, 2008y., 106-b

munosabatlarni tartibga soladi shu sababdan huquq va uni ifodalovchi qonunlar shu jumladan asosiy qonun axloqiy talablarga, meyorlar qadriyatlarga zid kelmasligi kerak. Huquqlarning, qonunlarning axloq bilan jamiyat ma'naviyati bilan bog'laydigan asosiy tamoyil bu ularning adolatliligidir. Adolat barcha zamonlarda axloq uchun ham huquq uchun ham umumiy negiz vazifasini o'tab kelgan. Adolat – huquq va davlat boshqaruvining asosiy mezonlaridan biri. Arab tilida adolat, adliya – so'zlarining o'zagi bir. Shu sababdan Sharq va G'arbning mutafakkirlari adolat, adolatli jamiyat, tushunchasiga katta e'tibor qaratganlar. Buyuk allomalarimiz adolatli jamiyat qurish, adolatli davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini yaratish to'g'risida ko'p bosh qotirganlar, ajoyib g'oyalarni olg'a surganlar. Bu g'oyalar, fikrlar bugungi kungacha ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Jamiyat barqarorligini ta'minlash, jamiyat a'zolarining baxt-saodatga ma'naviy kamolotiga erishuvi adolat, insonparvarlik, teng huquqlilik tamoyiliga asoslanadi. Bu haqida chuqur mulohaza yuritgan buyuk allomalarimizdan biri Abu Nasr Forobiy g'oyalarining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ham ana shu bog'liqlikni kashf etishdir. Forobiy fozil shaharning boshlig'i oqil kishi bo'lib u o'n ikkita xislat-fazilatni o'zida birlashtirishi zarur deb ta'kidlaydi. Bu fazilatlar:

1. Sog'- salomatlilik
2. Nozik farosatlilik (suhbatdoshning fikrini tez ilg'ab olishi yani, shu asnoda bu xalqning xohish-istagini, manfaatlarini, tushunib uni tasavvur eta olishlilik)
3. Yaxshi xotira
4. Zukkoligi (u chiqargan hukm yoki qaror alomatlarini oldindan nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi va buni sezgan holda uni tatbiq eta olishlilik)
5. Shirinsuxanlik
6. Ilmga chanqoqlik
7. Nafsni tiya olishlik
8. Haqiqatparvarlik

9. Oliyjanoblik (ulug', oliy ishlarga intilishi)

10. Kamtarlik.

11. Adolatparvarlik (barchani adolatga chaqirish, hammani birdek ko'rish odil ish tutib haqsizlik va razolatga barham berish davlat boshqaruvida odillikni qo'lga tutib uni boshqarish)

12. Qat'iyatlilik

Buyuk mutafakkirlarimiz o'z asarlarida odil hukmdor vazifasini uning obrazi va g'oyasini turlicha talqin qilganlar. Ammo ularning maqsadi, amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar – bu xalq farovonligi va yurt tinchligiga qaratilgan.

Adolat g'oyasi O'rta Osiyo mutafakkirlari asarlarida har tomonlama ochib berilgan. Odil (adolatparvar) hukmdor obrazi va g'oyasini biz Alisher Navoiy "Xamsa"ning har bir dostonida uchratamiz. Chunonchi, "Hayrat ul-abror"ning o'n to'qqizinchi maqolati "Xuroson bayonida" deb ataladi. Maqolat to'laligicha shohning adolati targ'ib qilingan. "Mamlakat shohi insofi tufayli shunday sharaf topdi, uning sifatlaridan aqllar lol qoldi. Hech so'zsiz, Xisravi G'ozi – Husayn Boyqaro adolatiga hamma lol. Uning adolatini Anishirvon o'rgansa, shogirdlikni havas qilib, yuz ishidan bir ishigina – adolatnigina o'rganardi, lekin islomni o'rganmasdi"¹. Maqolatda Xuroson bayoni berilib, Xuroson jannatning bog'iga, shaharlarining go'zalligi esa jannatga, tog'lari oldida falak, sodda bir dashtga o'xshatiladi. Uni poki poytaxti Hirotni kimki ko'nglidan sevsa, dalil istasa, uni ko'ngil mulkiga sulton deb ataydi. Xuroson bayonida Navoiy go'shaning har bir joyini, har bir qadamini yuksak falakka, jannatga, jannat bog'iga yaxshi odamlarini esa jannat bog'idagi hurlarga qiyoslab ta'rif beradi. Bularning barchasini sharaf topishini esa Navoiy shoh insofi va uning adolatparvarligi bilan bog'laydi. Bundan biz xulosa etishimiz mumkinki, adolat va insonparvarlik bilan mamlakat taraqqiy etadi va yuksaladi. Maqolat qo'yidagicha yakunlanadi:

¹ Alisher Navoiy. "Xamsa", T.: "Yangi avlod", 2014., 77-b

“To bani Odam bila olam erur
Olam ichinda bani Odam erur

Adl ila olam yuzini obod qil,
Xulq ila olam elini shod qil

Hukming aro olamu odam dog’i,
Yo’qki bu iki yana olam dog’i”¹.

Ya’ni, odamzod bor ekan, olam bor ekan, olam ichinda odamzod yashar ekan, adolat bilan olam yuzini obod qil, yaxshi xulq bilan dunyodagi odamlarni shod qil. Olam bani odam bilan , bani odam olam ichinda ekan, adolat bilan olam yuzini obod qil.

Navoiy asarlari yurtning obodligi, tinchligi, xalqning osoyishtaligi shohning adolat bilan saltanatni boshqarishida, odil shoh vayron bo’lgan mamlakatni adolat bilan obod qiladi, xalqning ko’nglini esa nurafshon etadi:

“Shohki ish adl ila bunyod etar,
adl buzuq mulkni obod etar”².

(Ya’ni, shoh adolat bilan ish yurutsa, adolat uning vayron bo’lgan mamlakatini obod etadi.)

“Koming uchun tuz bo’l-u, adl ayla ish,
O’qda agar adl yo’q etmas ravish”³.

Ya’ni, maqsadingga yetish uchun hamisha adolat bilan ish qil, yoy o’qi tekis, to’g’ri bo’lmasa ucholmaydi. Adlki, uch harfdan iborat bo’lib, har birida o’zgacha mazmun bor: “ayn”i uning mehri erur tobnok, yani “ayn” harfi quyoshga o’xshash porloqdir, u zulmning qaro shomini yorug’likka aylantiradi.

¹ Alisher Navoiy. “Xamsa”, T.: “Yangi avlod”, 2014y., 78-b

² Alisher Navoiy. “Xamsa”, T.: “Yangi avlod”, 2014y., 80-b

³ Alisher Navoiy. “Xamsa”, T.: “Yangi avlod”, 2014y., 81-b

“Dol”i davlatu din tojidur, din bila davlat el muhtojidir. Tojni kiyib, mehr bilan ko’zni yorit, so’nggi mustahkam ishni qo’linga tut. Adolat quyoshdek porloq u zulmatning qora shomini yorug’likka aylantiradi. Davlat ham din ham “Dol” boshlanishi tojidur bu ikkisi ham elga muhtojidir. Tojni kiyib, mamlakatni boshqar, mehr bilan xalqning ko’nglini yorit, so’nggi mustahkam ishni qo’linga tut. Podshoh davlatni boshqarishda adolatni qo’liga tutsa xalq uning adolatidan ko’ngli nurafshon bo’ladi.

Mamlakat va xalq taqdirini shohning odilligi, adolatparvarligi bilan bog’lagan Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida mamlakatning tinchligi va uning farovonligini shohning adolatparvarligi bilan bog’laydi. Odil shoh mamlakatni boshqarsa, uning odilligidan xalq hayratda, zolim amaldor va mirshablar esa uning siyosati tig’idan qo’rquvda deb, Navoiy odil shohning odilligini va xalq hayratini qo’yidagicha tasvirlaydi: “Ochlar g’izosi bazl va atosi xonidin, yalong’ochlar libosi xizonai lutf va ehsonidin. Mulk bog’in ma’mur qilurg’a abri serob va mulk ahli ko’zin yoruturg’a mehri jahontob. O’zga mulkning raoyo va xalqi aning orzusida va yana kishvar mazlumlari aning adli duosi guftigo’sida. Yaxshi otig’a ulamo ishi rasoil tartibi va yaxshi sifotig’a shuaro varzishi qasoyid tarkibi, mug’anniyalar ishtig’oli sanosi uchun surud tuzmak va musanniflar maqoli duosi ohangida nag’ma ko’rguzmak”¹. Ya’ni, “ochlarning ovqati odil shohning shafqat va muruvvati bilan yozgan dasturxonidan; yalang’ochlarning libosi uning lutf-marhamat xazinasini ehsonidan. U mamlakat bog’ini obod qilishda yomg’ir bulutiday serob; mamlakat ahli ko’zini yoritishda jahonga nur soluvchi oftob. O’zga yurtlarning elu xalqi uni orzu qiladi; boshqa o’lkalarning mazlumlari adolatparvarligi tufayli uni duo bilan tilga oladi. Olimlar uning yaxshi nomini ta’riflab risolalar bitadi; shoirlar uning go’zal sifatini madh aylab qasidalar yozadi. Bastakorlar unga atab kuylar yaratadi; xonanda-sozandalar uni dil-jigardan kuylaydi”².

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami, 14-tom. “Mahbub ul-qulub”dan. T.: “Fan”. 1998. 13-b.12 b

² Mahbub ul-qulub Alisher Navoiy T.: “G’ Gulom nomidagi adabiyot va san’at”, 16 b

Navoiy hukmdor bo'lishga munosib shaxs bo'lish uchun qo'yiladigan talablarni o'z asarlarida ramziy va majoziy obrazlarda yaqqol ochib beradi. "Mahbub ul-qulub" asarida Navoiy adolatli hukmdor uning teskarisi zolim johil, fosiq podshohlar to'g'risida "Odil podshoh ko'zgu va bu aning uchasidur. Ul Yoruq subh, bu aning kechasidur"¹. Ya'ni, "Adolatli podshoh yorqin ko'zgu bo'lsa, bu uning teskarisidur; unisi yorug' tong bo'lsa, bunisi – qorong'i kechasdir"².deb zolim podshohga mamlakat va xalqning notinchligi unga xuzr, orom hamda xotirjamlik bag'ishlaydi deb zolim podshoh emas odil podshoh bo'lishga da'vat etadi. Asarda shohdan toki oddiy fuqarolarning vazifalari qanday bo'lishligi haqida, shuningdek Navoiy xalq va davlatning munosabatlarini mushtarakligini adolat bilan bog'laydi va barchanini odil, adolatli bo'lishga chorlaydi.

Bu kabi g'oyalar SHarq mutafakkirlarini qiziqtiribgina qolmay G'arb mutafakkirlarini ham qiziqtirib kelgan. N.Makiavelli, Sh.Monteskyo, J.J.Russo, Volter, Sharl Fure, O.E.Robert va boshqa ko'plab mutafakkirlar 16 asrdan boshlab adolatli jamiyat haqida ko'plab asarlar yozganlar. Ushbu masala esa 19 asrlarda juda ko'pchilik olimlarni siyosiy arboblarni, partiyachilar ham qiziqtirgan. Siyosatchilardan tashqari faqat "Sof ilm" bilan shug'ullanadigan olimlar ham ushbu masaladan chetda qolmaganlar Ular ham adolatli jamiyat qurish va uni boshqarish haqida bosh qotirganlar va o'z asarlarida bular haqida fikr yuritganlar. Bulardan Artur Shopengauerdir. U mukammal davlatga asos solish uchun eng avvalo shunday mavjudotlarni yaratish kerakki, toki ular hamma yerda va har doim o'z manfaatlarini jamiyat farovonligi yo'lida qurbon qilishga qodir bo'lsinlar deb jamiyat farovonligi yo'lida fidoiy bo'lishni uqtiradi.

Adolat, jamiyatni adolatli boshqarishda hamma vaqt ham davlat bilan xalq munosabatlarini yaqinlashtiradigan asosiy odillik tarozisi vazifasida va barcha esa uning tarafdori bo'lib kelgan. Milloddan avvalgi 551-479 yillarda Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri faylasuf Konfutsiy hukmdor va xalq o'rtasidagi

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom. "Mahbub ul-qulub"dan. T.: "Fan". 1998. 13-b.

² Mahbub ul-qulub Alisher Navoiy T.: "G' Gulom nomidagi adabiyot va san'at" 17 b

o‘zaro munosabatni shunday qiyoslaydi: podshoh misli bir chavandoz bo‘lsa, amaldorlar va qonunlar yugan va jilov, fuqarolar esa otdir. Otni yengil boshqarmoq uchun uni puxta yuganlamoq va jilovni to‘g‘ri boshqarmoq lozimdir.

Ya‘ni otlarning kuchini bir-biriga muvofiqlashtirib, ortda qolganlarini nazorat qilmoq joizdir. Ana shu shartlarga amal qilgan chavandoz ovoz chiqarmasa, niqtalamasa ham otlar o‘z-o‘zidan chopib ketaveradi. Konfutsiy fikrini qo‘yidagicha xulosalashimiz mumkin: Davlat boshlig‘i siyosatda amaldorlar va o‘rnatilgan qonunni mustahkam qo‘lda tutishi, hamda ikkisini nazoratda ushlagina oddiy fuqaro, xalq va jamiyatning farovon taraqqiy etishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Adolatli shoh xalq xohish-istaklari bilan ham qiziqib turishi kerak. Agar xalqni davlat boshlig‘i adolat, o‘zaro tenglik bilan boshqarsa, xalq jamiyat taraqqiyoti farovonligi uchun hizmat qiladi.

Adolat, insonparvarlik, halollik, insoflilik, ezgulik, diyonat, ijtimoiy tenglik, o‘zaro hamkorlik ijtimoiy hayotning ajralmas bir bo‘lagidir. Bugungi kunda ham bu kabi tamoyillar o‘z ahamiyati darajasini yo‘qotgani yo‘q. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek “Mamlakatda adolat tamoyillari amal qilishi, barqarorlik hukm surishi uchun uch subyektning, yani davlat, jamiyat va fuqarolarning o‘zaro munasabatlaridagi qonuniylik asos bo‘ladi. Boshqacha aytganda, ana shu uch subyekt – davlat, jamiyat va inson munosabatlarida uyg‘unlikka, ularning manfaatlari bir-biriga mos kelishiga erishilsagina, otabobolarimiz orzu qilgan adolatli jamiyat barpo bo‘ladi. Ular bir-birining huquqini yaxshi bilishi va hurmat qilishi osoyishtalik va farovonlikning zarur sharti va muhim omilidir”¹ Adolatli jamiyat barpo qilish uchun davlat jamiyat inson manfaatlari bir-biriga mos kelishi va taraqqiyotning yuksalishiga hizmat qilishi lozim. Ezgulik, yaxshilik, adolat, shafqat, insonparvarlik, halollik, burch, vijdon, insoflilik, diyonat, ijtimoiy tenglik, teng huquqlilik, demokratiya bu kabi axloqiy tamoyillar Konstitutsiyamizda mustahkamlangan bo‘lib bu

¹ Karimov I.A. Yuksak huquqiy tafakkur – demokratik jamiyat taqozosi // , Xafsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo‘lida. T.6. – O‘zbekiston, 1998. – 26-27-b.

mamlakatimiz qo'rmochi bo'lgan adolatli demokratik, huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurishning yunalishidir.

Konstitutsiyamizda inson, jamiyat davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar oqilona hal etilib, siyosiy jihatdan rasmiylashtirilib qo'yilgan. Asosiy qonunimizning

2-moddasida Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Aytishimiz mumkinki, davlat eng avvalo xalq irodasini ifoda etadi, o'z navbatida ma'naviyatning takibiy tuzulmasi hisoblanmish iroda insonning muayyan maqsadini tanlay bilishi unga erishish uchun kerakli kuch topa olish qobiliyatidir. Iroda orqali inson o'zida kuch topa oladi har qanday qiyinchilikda tushkunlikka tushib qolmaydi. Shu bilan birga iroda ezgu maqsad sari yetaklaydi, o'z navbatida yangi maqsadlar, yangi g'oyalar sari yo'l boshlaydi. A.Erkayev iroda haqida shunday deydi: "Maqsad tanlash va unga erishish bilan bog'liq faoliyat sifatida iroda axloq va huquqning asosida yotadi."¹ Davlat xalq irodasini ifoda etadi, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi, o'z navbatida xalq tanlagan muayyan maqsad davlat, jamiyat taraqqiyoti yuksalishiga sharoit yaratadi.

O'zbekiston davlatining xalqdan ajralib turadigan faqat hokimiyat tuzulmasi sifatida o'zi uchun xizmat qiladigan alohida manfaatlari yo'q! Xalq davlat uchun emas, balki davlat xalq uchundir. Shu sababdan xalqning irodasi, davlat hokimiyatining asosini tashkil etadi. Davlatning qonunlari va amaliy faoliyati ya'ni siyosiy oqibati natijasida xalqning irodasini yuzaga chiqarganda,

¹ A.Erkayev. Manaviyat va taraqqiyot. T.: "Ma'naviyat" 2009., 47-b

ya'ni hokimiyatning xohish-istaklari, orzu-umidlari, intilishlarini amalga oshirishga qaratilgan. Shu sababdan davlat o'rnatgan qonunlar va huquqlar asosida xalqning irodasi aks etadi.

Bu bilan davlat yuritadigan siyosatida, amalga oshiradigan faoliyatida inson va jamiyat farovonligini ko'zlab adolat va qonuniylik bilan ish yuritadi. Konstitutsiyaning 14-moddasi Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi hamda Konstitutsiyaning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarning moddalarida adolat, teng huquqlilik, qonuniylik qat'iy tus olgan. Adolatni davlat Konstitutsiyasida mustahkamlanish uning hamma uchun tarozi hamda davlat o'rnatgan qat'iy qonunning adolatli bo'lishini ta'minlab beradigan mustahkam kuchdir. Konstitutsiyamizning 14 moddasida ham qonun hamma uchun qat'iy, qonun doirasida ish yuritish, yuritiladigan har qanday ish esa adolat tamoyiligi amal qilinishini ta'minlanishi qonunimizda mustahkamlangandir.

Konstitutsiyamizning 46-moddasida esa Xotin qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Anglab olishimiz mumkinki 18-46-moddalarda o'zaro tenglik, teng huquqlilik tamoyilining Konstitutsiyamizda mustahkamlanishi bu insonlar o'rtasidagi adolatni tenglik asnosida taminlanish hamda davlatimizning bag'rikengligining nishonasidir. Adolatli, tenglik huquqlilik milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik, maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishga yordam beradi, umuminsoniy, tenglik g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi.

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 130dan ortiq millat, elat, xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli bo'lib bu konstitutsiyamizda va barcha qonunlari bilan mustahkamlangan. Diniy bag'ri kenglik ham o'zaro tenglikning, teng huquqlilikning bir ko'rinishi. Konstitutsiyamizning 31-moddasida Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi alohida ta'kidlangan. Hozirgi kunda mamlakatimizda 15 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asos O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida"gi qonunda o'z aksini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

Milliy bag'rikenglik turli milatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy-madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni, teng huquqlilikni (bag'rikenglikni) anglatadi.

Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, huquqlarini qonunlar bilan mustahkamlanganligini ta'minlash asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 16 ta kodeks va 500 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Qabul qilingan qonunlar davlat va xalq munosabatlarini o'zaro yaqinlashtirish hamda davlatning taraqqiy etishi, xalq manfaatlarining ularning xohish irodalarini davlat tomomidan kafolatlanganligining nishonasidir. Ushbu qonunlarning barchasida Ezgulik, yaxshilik, adolat, shafqat, insonparvarlik, halollik, burch, vijdon, insoflilik, diyonat ijtimoiy tenglik, teng huquqlilik, demokratiya, kabi axloqiy tamoyillar o'z aksini topgan. Masalan; Jinoyat kodeksi qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb

uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga asoslanadi (3-modda), qonuniylik prinsipi (4-modda), jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun oldida tengdirlar – fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi (5-modda), demokratizm prinsipi (6-modda), jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi – insonparvarlik prinsipi (7-modda), jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasini odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak – odillik prinsipi (8-modda), ayb uchun javobgarlik (9-modda), javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga (10-modda), jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari jinoyatlarni tez va to'la ochishdan, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan hamda qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir. Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlov fuqarolarning, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun va sud oldida tengligi asosida amalga oshiriladi (16-modda), shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish (17-modda) uni kamsitishga yo'l qo'ymaslik. Insonni qadr-qimmat e'zozlash unga hurmat bilan qarash ezgulikning eng yuqori betakror ma'naviyatli insonga xos belgi. Jinoyat kodeksi, jinoyat protsessual kodekslarda odillik, qonuniylik, insonparvarlik, adolatlilik, shaxs qadr-qimmatini hurmat qilish kabi ma'naviy tamoyillarni hisobga olinish bu avvalo jazolash emas uni tarbiyalovchi ahamiyati kengroq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashni, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqilishini, shuningdek bunday

huquqbuzarliklarning oldini olishni, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi (2-modda). Oila kodeksida esa oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi (2-modda), barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egaligi (3-modda), oilada er va xotinning teng huquqliligi (19-modda), mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari esa xodimlar, ish beruvchilar, davlat manfaatlarini e'tiborga olgan holda, mehnat bozorining samarali amal qilishini, haqqoniy va xavfsiz mehnat shart-sharoitlarini, xodimlarning mehnat huquqlari va sog'lig'i himoya qilinishini ta'minlaydi, mehnat unumdorligining o'sishiga, ish sifati yaxshilanishiga, shu asosda barcha aholining moddiy va madaniy turmush darajasi yuksalishiga ko'maklashish (Mehnat kodeksining 2-moddasi)da mehnatga oid munosabatlarda kamsitishning taqiqlanishi (6-moddasi) adolat (odillik), insonparvarlik, teng huquqlilik, ijtimoiy tenglik, qonuniylik, kabi ma'naviy, axloqiy tamoyillar mamlakatimiz qonunlarida, o'z aksini topgan.

Ijtimoiy munosabatlarni baholovchi va tartibga soluvchi ma'naviy tamoyillarning Konstitutsiya va qonunlarda hisobga olinishi davlat va xalq munosabatlarini yaqinlashtirish, inson huquqlarini himoya qilinishini, teng huquqlilik, ijtimoiy tenglikni, adolatni ta'minlash uchundir. Qonunlarimiz huquqiy ahamiyatga balki ma'naviy ahamiyatga ham ega. Xalqimizning asriy tajribasi davlatchiligimiz tarixida qo'llanilgan muhim tamoyillar, meyorlar, ma'naviy qadriyatlarga tayanib yaratilgan qonunlarimiz va ularga kiritilayotgan o'zgarishlar bu avvalo xalqimizning manfaatlarini, ularning xohish-istaklarini hisobga olib amalga oshirilmoqda. Adolat tamoyili davlat va xalqni birlashtiradi, uni yuksaltirib, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Bu ma'naviy tamoyilning qonunlarimizda hisobga olinishi baqarorlikni ta'minlaydi hamda o'z o'rnida xalq ijobiy munosabatda bo'lib o'z-o'zidan unga rioya qiladi. bu esa qonunlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

1.2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida milliylik va umuminsoniy tamoyillarining aks etishi.

“Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan xissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjixat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam”¹.

Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydilar. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan chirmashib, taraqqiy etib kelgan. Shuning uchun ham har bir millat o'z doirasida cheklanib qolmay, boshqa millatlar va xalqlar bilan birgalikda umuminsoniy tamoyilga asoslanib taraqqiy etishi lozim.

Butun jahon iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyoti xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixiy, taqdirlarining o'zaro bog'lanishi, chirmashuvi, bir-birini to'ldirishi asosida amalga oshadi. Agar biror millat boshqa millatlar bilan o'zaro o'xshash xususiyatlarga ega bo'lmaganda, iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lmaganda, u ulardan o'rganmagan va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, u tanazzulga uchragan millat bo'lgan bo'lar edi. Ayni chog'da boshqa bir narsani ham e'tibordan sobit qilmaslik kerak. Milliy manfaatlarni, milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlar va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muammolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda xalq etishga intilish, milliy manfaatlar baxonasida milliy xudbinlikni, tekinxo'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar

¹ Karimov I Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. “Fidokor”, 2000y 8iyun

taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning manfaati va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajratilmagan holda o'rganilishi kerak.

Millatlararo totuvlik milliy va umuminsoniy tamoyillar birligi va bog'liqligini cho'qur anglash natijasi hamdir. Millatlarning manfaati, qadriyatlari asrlar mobaynida o'zaro bog'liqlik holda rivojlantirilib kelingan.

Milliylik faqat millatning milliy qadriyatlari bilan cheklanmaydi. shuning bilan bir qatorda u umuminsoniy tamoyillari, umumbashariyat erishgan ilg'or yutuqlariga ham tayanadi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rta asosiy negizini belgilab berdi bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatanparvarlikdir;

Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir¹.

Umuminsoniylik – milliylikdagi eng ilg'or bir xalq uchun emas, balki ko'plab xalqlar uchun ahamiyat kasb etadigan muayyan mintaqa va turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlarini emas ko'proq barcha xalqlar uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalarni qadriyatlarni aks etishidir. Umuminsoniylik milliylikdagi mohiyatli mazmundir. Milliylik esa mohiyatli umuminsoniylik mazmunining konkret etnik shaklda yuzaga chiqishdir.

“Ilohiy, alarkim, gunohkor ekin,

Sen o'tkarmagan ne gunoh bore kin?

¹ Karimov I O'zbekiston buyuk kelajak sari T-"O'zbekiston"-1998y., 57 b

Agar avf ila qaram budurur,
Bori xalqning jurmi ma'furdurur.

Chu daryoi raxmatqa solganda mavj,
quruq qolmamish ne xazizu ne avj"¹.

Yani, ey mening parvardigorim! Banda zoti mavjud ekan, uning gunoh ishlar qilish tabiiy. sen sohibqaram sifatida aybjudlarga marhamat qilib, ularning bir emas bir qancha gunohlarini afv etib kelgansan. Agar afv bilan marhamat shunday bo'ladigan bo'lsa, dunyodagi jamiki xalqlarning kechirilishi tabiiy.

“Afv qaram, mehr muruvvat Navoiy talqinidagi insonparvarlikning asosiy sifatlaridir. Mamlakatning adolat bilan boshqaruvi el yurt iqboli uchun qanchalik muhim bo'lsa, bunday boshqaruv tamoyilida insonparvarlik ham shunchalik muhim ahamiyatga egadir.”²

Barcha vaqtda adolat, odillik, ijtimoiy tenglik, insonparvarlik umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lib kelgan hamda bugungi kunda ham o'z ahamiyati darajasini yo'qotmagan.

Adolat, yaxshilik, shafqat, insonparvarlik, burch, ijtimoiy tenglik, teng huquqlilik, demokratiya bu kabi tamoyillar o'z navbatida milliy hamda umuminsoniy ahamiyatga ega. Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda umuminsoniy tamoyillar, inson huquqlari hamda milliy xususiyatlarimiz va qadriyatlarimizdan kelib chiqib, bir qator qonunlar, normalar va me'yorlar belgilangan. Shuningdek hech bir davlatda yagona huquq sohasi mavjud bo'lishi mumkin emas. Har bir davlatning huquq sohalari, tarmoqlari o'z xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ammo, barcha huquq tarmoqlari uchun konstitutsiyaviy huquq asos hisoblanadi.

¹ Alisher Navoiy “Sadiy Iskandariy” T.:”G’afur G’ulom”

² M.Munavvarova “Mlliy istiqlol g’oyasini o’qitishda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish bo’yicha uslubiy qo’llanma” Qarshi 2014y 21-b

Barcha davlatlarning konstitutsiyaviy huquqi avvalo tartibga solish predmeti bilan ajralib turadi. Masalan, barcha huquqiy munosabatlar avvalo ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Masalan, oila huquqi – ota-ona, farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Yer huquqi yer egaligi va yerdan foydalanish qoidalarini o'zida mujassam etadi. Demak konkret aniq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solinadi.

Adolat va boshqa umuminsoniy tamoyillarni boshqa davlat Konstitutsiyalaridan milliy hamda umuminsoniy jihatlarini qiyosiy tahlil qilamiz. Adolat tamoyili umuminsoniy tamoyil sifatida turli davlatlarda turlicha talqin etiladi. Davlat esa o'z milliy xususiyatlari, hamda inson huquqlari, manfaatlaridan kelib chiqib buni qonunlarga mustahkamlaydilar. Masalan, Gretsiya Konstitutsiyasining 25 moddasi 2 qismida shunday deyiladi; "Davlat tominidan insonning asosiy va o'zgarmas huquqlarining tan olinishi va muhofaza qilinishi erkinlik va adolat sharoitida ijtimoiy taraqqiyotga erishishga qaratilgan. Irlandiya Konstitutsiyasining 45 moddasi 1-bandiga ko'ra "Davlat, adolat va xayr-ehson davlat hayotining barcha muassasa (instituti)larini ilhomlantirishi lozim bo'lgan ijimoiy tuzumni imkon qadar himoya qilgan va ta'minlangan holda butun xalqning farovonligini oshishiga ta'sir ko'rsatishi lozim". Mamlakatimiz esa o'z milliy hamda umuminsoniy qadriyatlari kelib chiqib konstitutsiyaning 14-moddasida Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi mustahkamlangan.

Umuminsoniy, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan millati, tili, dini, irqi va boshqa belgilardan qat'iy nazar teng huquqlilik tamoyili. Bizning mamlakatimiz azaldan mehmondo'st, ahil qo'ni qo'shnicilik insonparvarlikning nozik bir ko'rinishi bo'lib kelgan va asarlar osha bu avaylab-asrab kelinmoqda. Bu kabi milliy qadriyatimiz konstitutsiyamiz va qonunlarimizda ham o'z aksini topgan. Konstitutsiyamizning 18-moddasida O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va

ijtimoiy mavqedan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar. Shuningdek, fuqarolarning teng huquqliligini bo'zish jinsi, irqi millati, tili, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeiga qarab, fuqarolarning huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash haqida yo'l quymaslik hamda jazo chorasining muddati aniq qilib jinoyat kodeksining 141-moddasida mustahkamlangan. Ushbu qonunda "Vijdon erkinligini bo'zish" va unga jazo muddati 145-moddasida mustahkamlangan. Ushbu tamoyil umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lib bazi bir davlat konstitutsiyalarida (juda km bo'lsada bazi bir Konstitutsiyalarda bu kiritilmagan) ham belgilangan. Bulardan: Slavakiya Respublikasi Konstitutsiyasining (33-modda) biron-bir ozchilikka mansublik hech kimga ziyon yetkazmasligi lozimligini belgilab qo'ygan. Fuqarolarning tengligi – demokratiyaning muhim elementi hamda shu bilan birga jahon konstitutsiyaviy taraqqiyotining muhim tamoyillardan hisoblanadi, bu tenglik fuqarolarning davlat, qonun va sud oldidagi rasmiy tan olinadigan tenglik bo'lib u har bir davlat fuqarolarining jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, egallab turgan lavozimi, turar joyi, dinga munosabati, qarashlari jamoat birlashmalariga mansubligi va boshqa holatlardan qat'iy nazar teng huquqlilik, erkinlik va burchlarga ega ekanligini anglatadi.

Inson jamiyatning a'zosi sifatida qayta talqin etiladigan ijtimoiy tuzilmasi bu – oiladir. Aynan shu oilada inson dunyoni his qiladi, tushunadi, shakllanadi, uning ijtimoiy sifatleri vujudga keladi. Shu bois ham konstitutsiyalarning ko'pchiligi oilaga diqqat-e'tiborni qaratmasdan, uni chetlab o'ta olmaydi. Xuddi shu oila asosida yotadigan nikohga ham yuqorida ta'kidlangan tenglik, adolat kabi xususiyatlar ham aloqador. Misol uchun, Yaponiya Konstitutsiyasining 24-moddasida belgilanishicha, nikoh faqat ikkala tomonning o'zaro roziligiga asoslanadi va er-xotinning teng huquqliligiga asoslangan o'zaro hamkorlik negizida vujudga keladi. Oila va nikohga tegishli barcha masalalar jinslarning tengligi va shaxsiy qadr-qimmatini tamoyilidan kelib chiqqan holda qonun bilan tartibga solinishi lozim. Gretsiya Konstitutsiyasining 21-moddasi, 1-qismiga

muvofig, “oila millatni saqlab qolish va rivojlantirishning asosi, nikoh ham xuddi shunday, onalik va bolalik davlat himoyasi ostidadir”.

Ba'zi konstitutsiyalarda esa farzandlarning huquq va manfaatlari alohida muhofaza qilinadi. Meksika Konstitutsiyasining 4-moddasi, 5-qismida shunday deyiladi: “Ota-onalarning burchi – bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirilishiga qat'iy amal qilishdir. Qonun bolalarni muhofaza qilish uchun mablag'lar belgilaydi va ular davlat muassasalari orqali yetkazib beriladi”. Italiya Konstitutsiyasi ham nikohsiz tuzilgan bolalar muammosiga diqqat-e'tiborni qaratadi: 30-moddaning 3-4-qismlarida qonun chiqaruvchilar zimmasiga, nikohdan tashqari tug'ilgan bolalar uchun qonuniy tuzilgan oilalarda tug'ilgan bolalar ega bo'lgan huquqlarga mos holda barcha yuridik (huquqiy) va ijtimoiy (sotsial) muhofazasini ta'minlash va otalikni belgilash uchun qoida va chegaralarni o'rnatishlikni belgilaydi.

Polsha Konstitutsiyasining 72-moddasi yangi tug'ilgan bola huquqlarini tartibga soladi va bolalar huquqi bo'yicha vakolatli institut (muassasa)ni tashkil etishni ko'zda tutadi. Slovakiya Konstitutsiyasining 56-moddasida bolalarning alohida muhofaza va g'amxo'rlikdan to'la foydalanishlari belgilab qo'yilgan. Bolalar yoshlarining ulg'ayishi va balog'atga etishlari munosabati bilan asosiy inson huquqlari va erkinliklaridan foydalanadilar. Bolalarga iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va boshqa turli jihatdan ezish (ekspluatatsiya) va suiiste'molliklardan alohida muhofaza qilish kafolatlanadi. Davlat kattalarning g'amxo'rliigi va yordamidan mahrum bo'lgan bolalar va balog'atga etmagan o'smirlar uchun ham alohida maxsus himoyani kafolatlaydi.

Xitoydagi murakkab demografik vaziyat hozirda amalda bo'lgan konstitutsiya tuzuvchilarni quyidagi me'yorlarni konstitutsiyaga kiritishga undadi: “Davlat aholi o'sishini iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot rejalariga muvofiqlashtirish maqsadida tug'ilishni rejalashtirishni joriy qiladi” (25-modda); “Er-xotinlar tug'ilishni rejalashtirishga majburdirlar” (49-moddaning 2-qismi). Ushbu moddaning ham kiritilishi davlatning o'zaro manfaatlardan kelib chiqib to'g'ilish sonining kamayib ketishini oldini olish uchun qaratilgandir.

Mamlakatimizda esa oila – jamiyatning tarkibiy qismi va taraqqiyotimizga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil hamdir. O'zbek xalqi oila va nikohni azaliy qadriyat sifatida doimiy e'zozlab kelgan. O'zbekistonda oila onalik va bolalik va har birlashmalari insonning turmush faravonligini oshirish . fuqarolar totuvligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Konstitutsiyaning uchunchi bo'limi 14 bob «Oila» deb nomlanib unga 4ta modda 63,64,65,-moddalar bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga muvofiq «Oila jamiyatning asosiy bug'inidir hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish huquqiga ega» deb ko'rsatib utilgan. Albatta jamiyatning paydo bo'lishida oilaning roli beqiyosdir. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Davlat dimiy ravishda oila manfaatlarini barcha jabhalarda himoya qilib ularga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Milliy odat-an'analarimizga xos bo'lgan “Kattaga hurmatda – kichikda e'zozda”, “Ota-onani ezozlash farzandning burchi”, “Qarisi bor uyning parisi bor” kabi xalq orasidagi yurgan bebaho hikmatlarimizni konstitutsiyamizda ya'ni, voya yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir (66-moddasi) ota-onani e'zozlashni unga g'amxo'rlik ko'rsatish xam milliy qadriyatlarimizdan biri bo'lsa u Konstitutsiyaviy burchimiz hamdir.

Oila munosabatlarni 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan Oila kodeksi tartibga soladi. Bu qabul qilingan Oila kodeksi o'zida xalqaro normalarni , jahon oilaviy tajribalarini shu bilan birga o'zbekona urf-odat hamda qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirdi. Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan (1-moddasi) kabi milliy o'zbekona qadriyatlarimiz oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi (2-

modda), oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi (8-modda), Oilada er va xotinning teng huquqliligi (19-modda), qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quad-andachilik (9 bob), qarindoshlik (57-modda), yot aralashmagan va yot aralashgan qarindoshlik (58-modda), qayin-bo'yinchilik va quad-andachilik (59-modda) kabi umuminsoniy tamoyillarning milliy mentalitetimizga xos o'zbekona qadriyatlarda aks etirilgan holda oila kodeksi va boshqa qonunlarimizda o'z aksini topgan.

Asrlar davomida shakllanib, xalqimizning o'ziga xos hayot tarziga aylangan milliylikning yana bir ko'rinishi bu mahalla. Mahalla noyob jamoaviy tuzulma mustaqillik yillarida yangi maqom handa mavqeiga ega bo'ldi. Mahallaning jamiyatimizdagi o'rni Konstitutsiyamizning 105-moddasiga mustahkamlanishi bu avvalo qonunlarda umuminsoniy jihatlardan tashqari milliylik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda esa mahalla institute xalqaro miqyosda katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

I bob bo'yicha xulosa.

Adolat (Odillik) tamoyili davlat boshqaruvida, sud-huquq tizimini yaratishda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda hamma vaqtlarda mutafakkirlarni, olimlarni, davlat arboblarni, qiziqtirib kelgan. I bobda Sharq va G'arb mutafakkirlari asrlarida, davlat boshqaruvida adolatli bo'lish, davlat boshlig'ining, xalqning va jamiyatning oldidgi asosiy vazifalar haqida va ajoyib g'oyalarini ko'rib chiqdik. Ularning asarlarini o'rganib tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki

1. Adolat tamoyili o'zgarmas u hamma vaqtda, shuningdek bugungi kun chun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adolat tamoyili davlat boshqaruvida xalq va jamiyat munosabatlarini yaqinlashtiradi, kundalik munosabatlarda masalan savdo-sotiqda, o'zaro do'stona davralarda insonlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

2. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda hususan davlat, jamiyat qurilishida va yangi qonunchilik tizimini yaratishda adolat, teng

huquqlilik, qonuniylik, demokratizm, insonparvarlik tamoyillari muhim ahamiyatga egadir.

3. Adolat, birinchi navbatda, qonunning insonparvar xolis va taraqqiyotparvar bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, adolat qonunning barchaga birday bo'lishini, fuqarolarning barcha qatlamlariga barobar xizmat qilishini, odamlarni teng ko'rishini hamda fuqarolarning ham qonun oldidagi tengligini anglatadi.

4. Adolat shu jihatdan qonunning insonparvarligi va ustuvorligidir. Barchaning qonun oldida tengligini amalga oshirish davlat, jamiyat va inson munosabatlarining barqarorligini ta'minlaydigan va ularni bir-biriga yaqinlashtiradigan kuch bu – adolat. Shu ma'noda adolat ma'naviy kuchga aylanadi. U shaxs va jamiyatni, jamiyat munosabatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Insonlar esa o'z navbatida muayyan qonun yoki huquqni adolatli, teng huquqli, insonparvar mohiyatga ega deb hisoblasa unga ijobiy munosabatda bo'ladi va ixtiyoriy ravishda unga rioya etadi. Adolat tamoyili huquqda ezgulik, insonparvarlik, o'zaro tenglik va umuman axloqiylik haqqoniylikni yuzaga chiqaruvchi tamoyildir.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari adolat, teng huquqlilik, qonuniylik, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy tamoyillarni hisobga olgan holda yaratilgan.

6. Milliy tamoyillar xalqning o'z mentaliteti, urf-odatlarini, ajdodlaridan avlodlariga qolgan hozirda ham o'z qadrini yo'qotmagan qadriyatlaridan kelib chiqib yaratiladi. Milliy tamoyillarning Konstitutsiya va qonunlarda ifoda etishi usha xalqning o'z qadriyatlarini yuksalishiga, qadrlanishiga, uni qaror topishiga va unga hurmat qilishga, milliy qadriyatlarini e'zozlashiga uni umuminsoniy qadriyat sifatida qaror topishini taminlaydi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi.

7. Umuminsoniy tamoyillar adolat, insonparvarlik, ezgulik, diyonat, hurmat har bir xalq millatga xos xususiyat bu tamoyillar ularga begona

tushuncha emas bular umuminsoniy harakterga ega. Bu kabi tamoyillarga esa ularning o'z milliy xususiyatlaridan kelib chiqib amal qilishadi.

8. Adolat tamoyili umuminsoniy tamoyil sifatida turli davlatlarda turlicha talqin etiladi. Davlat esa o'z milliy xususiyatlari, hamda inson huquqlari, manfaatlaridan kelib chiqib buni qonunlarga mustahkamlaydi. Adolat tamoyilining shakl va mohiyati o'zgarib qolmaydi albatta uning asl mohiyati umuminsoniy harakterga ega u hamma uchun birday tarozi vazifasini o'taydi.

9. Barcha vaqtda adolat, odillik, ijtimoiy tenglik, insonparvarlik umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lib kelgan hamda bugungi kunda ham o'z ahamiyati darajasini yo'qotmagan.

10. Adolat, yaxshilik, shafqat, insonparvarlik, burch, ijtimoiy tenglik, teng huquqlilik, demokratiya bu kabi tamoyillar o'z navbatida milliy hamda umuminsoniy ahamiyatga ega. Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda umuminsoniy tamoyillar, inson huquqlari hamda milliy xususiyatlarimiz va qadriyatlarimizdan kelib chiqib, bir qator qonunlar, normalar va me'yorlar belgilangan. Shuningdek hech bir davlatda yagona huquq sohasi mavjud bo'lishi mumkin emas. Har bir davlatning huquq sohalari, tarmoqlari o'z xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ammo, barcha huquq tarmoqlari uchun konstitutsiyaviy huquq asos hisoblanadi.

II-BOB.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING CHUQURLASHUV JARAYONIDA QONUNCHILIK TIZIMINING YANADA INSONPARVARLASHUVI.

2.1.Jamiyat taraqqiyoti jarayonida huquqning insonparvarlashi.

Huquq – davlatning qonunlar tizimida ifodalangan irodasi va fuqarolarning yashash, kun kechirish, faoliyat yuritish, boshqalar bilan munosabatga kirishish, davlat boshqaruvida ishtirok etish, masalalaridagi erkinlik darajasidir. Huquqning o'zini biz 2 ga bo'lamiz. Bular:

1. tabiiy huquq
2. yuridek huquq

Tabiiy huquq – insonning bioijtimoiy mavjudod sifatida yashashi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan huquqlar.

Yuridek huquq – insonning ijtimoiy mavjudod ekanligi sifatida yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan haq huquqlardir.

Ular jamiyatning taraqqiyot darajasi va davlat tuzumining mazmun mohiyati bilan belgilanadi. Yuridek huquqlar insonning tabiiy huquqlarini qayta ishlangan holda o'z tarkibiga oladi. Masalan “Sog'liqni saqlash to'g'risida”gi qonun (bu – yuridek huquq bo'lsa), u meditsinaga oid bu insonlarning sog'lom yashashlarini ta'minlashdir (tabiiy huquqdir).

Huquq konkert tarixiy hodisadir. Uning mazmun mohiyati jamiyatning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat qanchalik rivojlangan bo'lsa huquq ham shunchalik rivojlangan va insonparvarlashgan bo'ladi. Bu umummiy qoida umummiy qonuniyat ammo qoidadan istisno holatlar ham tarixda ko'p uchraydi. Chunki huquq bu tarixiy zaruratning yuridek jihatlarni subyektiv anglab olishdir. Ikkinchi tomondandan esa hokimiyat vositalari orqali subyektiv anglab olingan siyosiy usularda amalga oshirishdir. Bunday holatda ba'zan yuqoridagi qoidadan istisnolarni keltirib chiqaradi hokimiyat uchun kurashda o'z raqiblarini yengish yoki ularni hokimiyatdan chetlash hokimiyatga donogarlarni yaqiniga yulatmaslik

uchun huquq g'arazli bir tomonlama tahlil qilish mumkin har xil siyosiy rejim o'rnatilishi mumkin. Stalin, Salazara, Mussalin, Gitler va shu kabilar siyosiy rejimlar XX asrda faoliyat yuritdilar. Dushmanlarga qarshi ular O'rta asrlar huquqlaridan farq qiladigan huquqni qo'lladilar. Ularning rejimida amal qilingan huquq XX asr sivilizatsiya erishgan darajasiga mos emas edi.

Huquq 3 xil bo'ladi.

1. qonunlarga asoslangan huquq
2. presedentlik huquqi (na'munaga asoslangan)
3. talqiniy huquq

Ushbu tushunchalar nisbiydir. Har qanday qonun sharhlanadi, qonun chiqaruvchi yomonidan talqin qilinadi. Aks holda uning mazmuni yuridek yoki jismoniy shaxslar hatto huquqshunoslar ham tushunmasilgi mumkin. Qonunlarni sharhlash uning mazmunini tushunish talqin qilish va uni amaliyotga qo'llashni birxillashtirish, obyektivlashtirishga qaratilgan.

Talqiniy huquq deganda qonunni sharhlash emas, balki bir tomonlama kimningdir foydasini ko'zlab, g'arazli talqin qilish tushuniladi. Shuning uchun talqiniy huquq xalqaro miqyosda tan olinmaydi.

Qonunga tayanuvchi huquq bu huquq faqatgina qonunlarga tayanib ish tutadi. Qonunlarda chetga chiqib ketmaydi, faqat qonunlarga tayanadi

Presedentlik (na'munaga asoslangan) huquq "o'xshash", "takrorlanishish", "na'muna" degan ma'nalarni bildiradi. Presedentlik (na'munaga asoslangan) huquq qonunlarning moddalari chalkash bo'lgan hollarda, qonunlar mujassamlashmagan hollarda va boshqa hollarda uning jazosini ta'minlash uchun boshqa bir jazo ma'lum bir (xalqaro boshqa holda) ma'noda na'muna qilib olinadi.

Huquqning tizimlashtirilgan aniq bir meyorlar va moddalar bilan ifodalangan shakli bu – qonundir. Qonun muayyan huquqning va huquqiy munosabatlarning aniq tizimlashtirilgan shaklidir. Qonun bu – huquqning aks etishidir. Prezidentimiz takidlaganidek: "Respublikada qabul qilingan birinchi Konstitutsiya va bir qator asosiy qonunlar hayotimizning hamma tomonlarini

demokratiyalashning, jamiyatimizni yangilash hamda O'zbekistonni o'zining ishonchli va istiqbolli sherigi deb bilayotgan jahondagi ko'plab mamlakatlar bilan hamkorlik jarayonlari ortga qaytmasligining qudratli huquqiy kafolati bo'lib hizmat qilmoqda"¹.

Mamlakatimizda yaratilayotgan, isloh qilinayotgan qonunlarimiz eng avvalo xalqning o'z huquqlarining kafolatlanganligini ifodasidir. Bu qonunlarimiz qotib qolgan emas u xalq manfaatlaridan, inson huquqlaridan xohish-istaklaridan, ijtimoiy hayot uchun kerakli hamda davlat taraqqiyotining maqsadlarini amalga oshirish uchun doimo yangilanishda bu esa huquqning insonparvar ko'rinishining yorqin nishonasidir.

Ma'lumki, juda ko'p hollarda axloq meyorlari bilan huquq me'yorlari mohiyatan va mazmunan bir xil bo'ladi. Shunga ko'ra aytishimiz mumkinki axloqni jmoatchilik asosidagi huquq, huquqni esa qonuniylashtirilgan axloq deb atash mumkin. Axloqshunoslik va huquqshunoslik yondashuv usuli har xil huquq me'yorlarning bajarilish maxsus adliya idoralaridagi lavozimli kishilar orqali, majburiy vosita sifatida yo'lga qo'yilsa, axloq ma'lum bir jmoatchilik fikri, shuningdek kishilar o'z tarbiyasi urf-odatlardan kelib chiqib amalga oshiradi. Shu bilan birga "axloqiy talab huquqiy qonun qoidalarda o'z aksini topadi deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ekanini tasdiqlab turibmiz"². Aslida ham shunday axloqning meyorlari, tamoyillari, uning ba'zi bir urf-odatlari, axloqiylikka zid bo'lgan hatti-harakatlarni cheklash zahirida huquq qonun-qoidalari vujudga keldi.

Axloqiy tamoyillarning qonun, huquqiy meyorlarda aks etishi uning adolatli bo'lishini hamda insonparvarlashuvini ta'minlaydi. Axloqiy tamoyillardan ezgulik-yovuzlik haqida so'z yuritadigan bo'lsak ezgulik insoniy ulug' fazilat bo'lib u shuningdek jamiyatga foyda keltiradi uni yuksak taraqqiyotga yetkazuvchi kuch hisoblanadi. Yovuzlik uning teskarisi salbiy tushuncha hisoblanib aksincha u jamiyatni tanazzulga uchratadi. Ezgulik –

¹ Karimov I O'zbekiston buyuk kelajak sari T-"O'zbekiston"-1998y., 57-b

² A. Sher. Axloqshunoslik. T., "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" 2010y., 231-b

yovuzlik tushunchasi inson shuningdek jamiyat faoliyatini baholovchi kuchga ega. Ezgu maqsadlar sari yetaklaydigan yangi-yangi jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak g'oyalar bo'lsa jamiyat taraqqiy etadi. "Ayni paytda hayot haqiqati shuni ko'rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda- ezgulik va yovuzlik yo'lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga, yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash mavjud bo'lib kelganini va bu kurash bugun ham davom etayotgan ko'ramiz"¹ ezgulikning ma'no mohiyati yovuzlikka qarshi kurashda o'z ifodasini topadi. Yovuzlik hamisha ham yaqqol namoyon bo'lmaydi, ba'zan u ezgulik niqobida ham ko'rinishi mumkin. Buni anglab yetish kishidan ogohlik va hushyorlik, ziyraklik va loqayd bo'lmaslikni talab etadi. Ma'lumki, o'lim axloqiy nuqtai nazardan eng ulkan yovuzlik hisoblanadi. Ayniqsa majburiy o'lim eng vahshiy yovuzlikdir shunga ko'ra, o'lim jazosining huquqiy jihatdan qo'llanilishi mohiyatan jamiyat tomonidan yovuzlikka qarshi yovuzlik bilan javob berishdir.

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom islom dinining uch asosi borligini aytib, ularning birinchisi odam o'ldirmaslik ekanini ta'kidlaydilar. Buni imom G'azzoliy "Mukoshafat ul qulub" da shunday keltiradi:

"Termiziy va boshqa hadisichilar rivoyat qiladilar:

Rasululloh buyurdilarki:

Islomning uch dasturi bor. dinning tamoyili shular ustidan qurilgan. Kim shu asoslardan tashqari chiqsa, bu bilan u kofirlikka qarab ketgan bo'ladi:

-Qonni (odam o'ldirishni) halol hisoblasa;

-” Ollohdan boshqa ilohi yo'qligiga (shahodat) bermasa;

-Farz bo'lgan namozni va ro'zani inkor etsa"²

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat" 2008y., 112-b

² A. Sher. Axloqshunoslik. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" 2010y., 231-b

Aytishimiz mumkinki, inson hayoti eng oliy qadriyat ekani diniy nuqtai nazaridan ham nafaqat tan olinadi, balki bu birinchi o'ringa qo'yiladi. O'lim jazosini kimlar qanchalik ma'qullamasin, uni oqlashga harakat qilmasin, u-jinoyatchini jazolashdan ko'ra, undan balki uch olishga qaratilgan jazodir. Aslini olsak insonning muayyan jinoyatni sodir etgan xatti-harakatlari qoralanishi kerak, uning o'zi emas yovuzlik o'limga mahkum etilishi lozim. Bu bilan biz yovuzlikka ma'lum bir qarshi kurash qilayotgan bo'lamiz. Insonni, odamni o'ldirish bu o'limni esa amalga oshirishning o'zi yovuzlik emasmi? Odamni emas yovuzlikni o'ldirish oqilona ish emasmi? Yovuzlikni o'ldirish, yovuzlik sodir etgan kishining uzoq muddatli yoki bir umrlik qamoqdagi vijdon azobi va tazarrusi bilan amalga oshirilgani durustmasmi?

O'tgan o'n yildan ortiqroq vaqt mobaynida o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bolgan jinoyatlar tarkibi 33 tadan 2 tagacha qisqartirildi yani, faqat terrorchilik va og'irlashtiruvchi vaziyatda qasddan odam o'ldirganlik uchungina o'lim jazosi berilishi ko'zda tutilgan edi. 2005-yil 1-avgustda insonning yashash huquqini e'lon qiluvchi va mustahkamlovchi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalaridan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, jinoiy jazolarni yanada liberallashtirish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab, jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etilishi ko'rsatilgan. 2008- yilning 1-yanvaridan boshlab O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish shuningdek fuqarolarning qamoqqa olish sanksiya berish huquqini prokuroturadan sudlarga o'tkazish to'g'risidagi qonunlarini butun dunyoga ulkan qiziqish etibor uyg'otdi. O'zbekistonda ozodlikdan mahrum etish jazosi xotin-qizlarga 18 yoshga yetmagan yoshlarga hamda 60 yashdan o'tgan erkaklarga nisbatan qo'llanilmaydi. Mamlakatimizda umrbod qamoq jazosifaqat ikkita jinoyat turi uchun – javobgarlikni

og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun qo'llaniladi. Umrbod qamoq jazosi Germaniya va Polshada – 5 ta, Belgiya va Rossiyada – 6 ta, Daniyada – 9 ta, Gruziyada – 11 ta, Shevetsiyada – 13 ta, Bellorissiyada – 14 ta Yaponiya va Ozarbayjonda – 16 ta, Qozog'iston va Koreyada – 17 ta, Fransiyada – 18 ta, Glondiyada – 19 ta Moldovada – 24 ta jinoyat turi bo'yicha belgilangan. Mamlakatimizdagi bu kabi huquqlarning himoyasi eng avvalo huquqning insonparvar ko'rinishi deb atashimiz mumkin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jamiyat va davlat hayotini demokratik jihatdan yanada yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlarning mohiyati va mazmuni, sud-huquq tizimini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijalari jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishini hamda uning umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilishi bu bilan inson hayotiga yovuzlikka yovuzlik bilan javob bermaslik maqsadida amalgam oshirildi. O'lim jazosini inkor etish albatta yovuzlikni inkor etish bu bilan uning qilgan aybli jinoyatini javobini vijdon azobi bilan almashtirilishi hamdir. Vijdon ham ma'naviy ta'moyilning bir ko'rinishi hisoblanadi. O'lim jazosini inkor etilishi mamlakatimiz birinchidan, huquqning insonparvarlashgan ko'rinishi bo'lsa; ikkinchidan, inson qadr-qimmatini ulug'lash uning yashash huquqidan ollohdan boshqa hech kim olishga hamda insoniy yondashish; uchinchidan yovuzlikning yaxshiy turidan voz kechish to'rtinchidan qonunlarimiz jazolash uchun emas tarbiyalash uchun qartilgandir.

Huquqning insonparvarlashuvida jamiyat va shaxs munosabatlariga ijobiy munosabatni uyg'otadi. Huquq jazolovchi ahamiyatga ega bo'lsa insonda salbiy hislarni ijobiy tomonga aylantirish munosabati bo'lmaydi. Jazolovchi huquq davlat undan uch olishga qartilagan ahamiyatga ega bo'lib qoladi. Shuning uchun huquq insonparvar hamda jazolovchi emas aksincha tarbiyalovchi ahamiyatga ega bo'lmog'i lozim.

2.2.O'zbekiston Respublikasi qonunlarida inson huquqlarining himoya qilishni qonunlarda mustahkamlanishi.

Hozirgi kunda davlatlar, shu jumladan mustaqil O'zbekistonning rivojlanish tarixi shaxs huquq va erkinliklari institutining rivojlanishi va takomillashuvi bilan chambarchasdir. Inson huquq va erkinliklari ijtimoiy munosabatlarning rivojlanish darajasiga faol ta'sir ko'rsatuvchi qadriyatlar yo'nalishidir. Ular inson va umuman, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratish orqali davlatning alohida shaxslar bilan o'zaro munosabatlari darajasini belgilab beradi.

O'zbekistonda inson huquqlari konsepsiyasining vujudga kelishi va rivojlanishi davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi bilan bevosita bog'liqdir. Bunda inson huquq va erkinliklarining umume'tirof etilgan xalqaro andozalari sohasini obyektiv tahlil etish hamda ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning aniq imkoniyati paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda mustaqil davlatlar doirasida inson huquqlari konsepsiyasi borasida to'plangan tarixiy tajribani o'rganish va qo'llash uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Eslash joizki, mustaqil O'zbekiston qo'shilgan birinchi xalqaro hujjat Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi hisoblanadi.

Albatta, inson va fuqaro huquqlari to'g'risidagi har qanday deklaratsiyani huquqiy davlat sharoitida amalga oshirishgacha — masofa uzoq, ammo tarixning ko'rsatishicha, maqsadga erishish yo'lini belgilab beruvchi bunday deklaratsiyasiz talab qilingan darajadagi huquqiy haqiqatga erishish yo'li undan ham uzoqdir. Ushbu munosabatda O'zbekiston Respublikasi o'zini huquqiy demokratik davlat va xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi sifatida e'tirof etgan holda tarixida ilk bor konstitutsiyaviy darajada inson, uning huquq va erkinliklarini oliy qadriyat deb e'lon qildi. Davlat inson huquq va erkinliklarining ustuvorligidan kelib chiqqan holda shu orqali inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilish bo'yicha davlat ichki va xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining hozirgi rivojlanish bosqichlari inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borilayotganligi bilan ta’riflanadi. Mustaqillik yillari inson huquqlari g‘oyasi jamoatchilik ongidan mustahkam o‘rin oldi va shu yillari mamlakatda amalga oshirilgan umumiy demokratik jarayonlar bilan qonuniy bog‘langan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov rahbarligida mamlakat gumanitar sohada jahon hamjamiyatining asosiy standartlari (andozalari)ni qabul qildi, inson huquqlariga rioya etish va uni himoya qilish bo‘yicha o‘ziga majburiyat oldi, bu huquqlar tabiiy va ajralmas ekanligi, insonga tug‘ilganidan boshlab mansubligi, barchaga, avvalo davlat hokimiyatiga birdek amal qilishi, ularning hech bir to‘sqinliksiz amalga oshirilishining kafolatlanishi shartligiga qo‘shildi.

O‘zbekiston, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshira turib, inson huquq va erkinliklarini xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari prinsiplariga muvofiq milliy tizimda bosqichma-bosqich shakllantirdi.

O‘zbekiston ichki va tashqi siyosat sohasida yangilanish va taraqqiyotning o‘z mustaqil yo‘lini tanladi. Mamlakat universal xalqaro tashkilotlarga, shuningdek

yetakchi mintaqaviy xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘ldi va ular faoliyatida faol qatnashdi, ular ichida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari asosiy hisoblanadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston inson huquqlari to‘g‘risidagi asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shildi. Mustaqillik davrida O‘zbekiston siyosatida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi asosiy prinsiplar shakllandi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, inson huquqlarini himoya qilishda milliy manfaatlarining ustuvorligi;

ikkinchidan, demokratik islohotlarni amalga oshirishning tadrijiyligi va bosqichma-bosqichligi;

uchinchidan, o‘z xalqaro majburiyatlari bilan umume’tirof etilgan demokratiya va inson huquqlari prinsiplariga sodiqlik;

to'rtinchidan, milliy manfaatlardan kelib chiqib, inson huquqlar sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu prinsiplarga asoslanib mamlakatda xalqaro standartlarni inson huquq va erkinliklariga joriy etish amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish tizimi va mexanizmlarini rivojlantirish asosiy masala — inson huquqlari bo'yicha xalqaro majburiyatlarga og'ishmay rioya qilish va demokratik huquqiy davlat qurish maqsadida amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillari mamlakat parlamenti tomonidan inson huquqlarini himoya qilish sohasiga taalluqli 15 ta kodeks va 500 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. Asosiy qonunchilik hujjatlaridan quyidagilarni alohida qayd etish mumkin: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; "Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"; "Konstitutsiyaviy sud to'g'risida"; "Siyosiy partiyalar to'g'risida"; "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"; "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"; "Axborot olish erkinligi va kafolatlari to'g'risida"; "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"; "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"; "Ayollarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"; Fuqarolarning huquq va erkinliklarni buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"; "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"; "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"; "Advokatura to'g'risida"; "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" gi va boshqa qonunlar shular jumlasidan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda inson huquqlariga oid qonunchilikning amaliy tizimi mavjud va ularga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi qonunlar kiradi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilikning negizi — mamlakatimizda inson va fuqaro huquq va erkinliklarining yuridik kafolati bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi zimmaga olgan xalqaro majburiyatlari ijrosini bajarilishi yuzasidan o‘z vaqtida hisobot beradi. O‘zbekiston 1998 yildan boshlab BMTning tegishli Qo‘mitasiga muntazam ravishda milliy ma’ruzalar jo‘natib turadi. Mustaqillik yillari Konvensiya va Paktlarning bajarilishi to‘g‘risida 30 dan ortiq milliy ma’ruzalar tayyorlab jo‘natildi.

Mamlakatda qonunchilik asoslari yaratilishi bilan parallel ravishda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini institutsional rasmiylashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda davlat asosiy tashabbuskor bo‘ldi. Inson huquqlari bo‘yicha BMTning Ikkinchi Jahon konferensiyasining (Vena, 1993y.) har bir mamlakatda inson huquqlari instituti tashkil qilish bo‘yicha chaqirig‘iga javoban O‘zbekistonda quyidagi demokratik institutlar tashkil etildi:

- Konstitutsiyaviy sud;
- Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman);
- O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo‘yicha Milliy markazi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonunchilik hujjatlari monitoringi instituti;
- Qonunchilik palatasining demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha Qo‘mitasi.

O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning davlat tizimidan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi nodavlat tashkilotlarning rivojlanishiga ham katta ahamiyat berilmoqda. Ulardan quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, Sudyalar assotsiatsiyasi va Advokatlar palatasi, Xotin-qizlar qo‘mitasi va boshq. Mamlakatimizda hammasi bo‘lib 5000 dan ortiq nodavlat tashkilotlar ro‘yxatga olingan.

O‘zbekistondagi milliy institutlar va nodavlat tashkilotlar turli xalqaro tashkilotlarning vakillari bilan uzviy hamkorlikda axborot-ma’rifiy faoliyat bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdalar. O‘zbekistonda har yili inson huquqlari sohasidagi dolzarb muammolar va ushbu sohadagi asosiy xalqaro

standartlar bo'yicha 50 dan ortiq seminar-treninglar, o'quv kurslari, konferensiyalar, davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizning barcha maktablari va oliy ta'lim muassasalarida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining "Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida "Inson huquqlari umumiy nazariyasi" fani o'qitiladi. Ushbu kafedra bazasida 2011 yilda "Inson huquqlari bo'yicha resurs markazi" ochildi va bu yerda ichki ishlar idoralari tinglovchilari, kursantlari va xodimlari o'rtasida inson huquqlari sohasidagi bilimlarni targ'ib qilish borasida har tomonlama va keng miqyosdagi ishlar olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi saytida Resurs markaziga bag'ishlangan alohida sahifa ajratilgan.

Bundan tashqari, davlat institutlari axborot-ma'rifiy doirada ilmiy-noshirlik ishlarini amalga oshiradilar. O'zbekistonning inson huquqlari muammolari bilan shug'ullanayotgan barcha vazirlik va idoralari o'zlarining xususiy bosma nashrlariga ega bo'lib, ularning sahifalarida bu masalaga ustuvor ahamiyat beriladi. Hammasi bo'lib 20 dan ortiq ixtisoslashgan yuridik gazeta va 5 ta jurnalda inson huquqlar muammosi yoritib boriladi. Inson huquqlar bo'yicha Milliy markaz tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladigan "Demokratlashtirish va inson huquqlari", "Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari" jurnallari yetakchi nashrlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillar davomida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ayollar va bolalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 1997 yilning O'zbekiston Respublikasida Inson farovonligi yili; 1998 — Oila yili; 1999 — Ayollar yili; 2000 — Sog'lom avlod yili; 2001 — Ayollar va bolalar yili; 2002 — Qariyalarni qo'llab-quvvatlash yili; 2007 — Ijtimoiy himoya yili; 2008 — Yoshlar yili; 2010 — Barkamol avlod yili; 2011 — Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik; 2012 — Mustahkam oila yili deb atalishi shundan dalolat beradi.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlari faoliyatida xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish O'zbekiston uchun xosdir. Mamlakatda ro'yxatga olingan

nodavlat tashkilotlarining yarmidan ortig'i xotin-qizlarga tegishli yoki ayollar tomonidan boshqariladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarni o'rganish va amalda qo'llash borasida O'zbekiston Respublikasi bu sohada davlat faoliyatining yo'nalishlari va shakllarini to'g'ri belgilab olish imkoniyatini bermoqda. Xalqaro konvensiyalar bir qancha zarur vazifalarni bajarib, davlat tomonidan inson huquq va erkinliklari qanday asosiy yo'nalishlar bo'yicha kafolatlanganligini aniqlaydi. Ularga quyidagilar kiradi: konsultativ funksiya — inson huquqlarini ta'minlash qoida va standartlari; tuzatish kiritish funksiyasi — inson huquqlarini amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish; preventiv funksiya — inson huquqlari buzilishining oldini olish; nazorat funksiyasi — davlatning inson huquqlariga rioya qilishga doir ma'ruza va hisobotlarini, inson huquqlarining buzilishiga doir murojaatlarni ko'rib chiqish; davlatga yordam ko'rsatish funksiyasi — moddiy, huquqiy, metodik, texnik va hokazo.

O'zbekiston Respublikasi uchun inson huquqlari bo'yicha majburiy bo'lgan asosiy xalqaro hujjatlarning ahamiyatiga oid masalaning tahlili, inson huquqlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratishga yordam berganligini ko'rsatdi, va ayniqsa: birinchidan, xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o'ziga xos modeli yaratildi;

birinchidan, xalqaro standartlarning milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning o'ziga xos yo'li yaratildi;

ikkinchidan, insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etilishi hamda parlament monitoringi va huquq va erkinliklarga daxldor ijro hokimiyati organlari ustidan nazoratni ham o'z ichiga olgan xalqaro norma va prinsiplarning bajarilish monitoringining milliy tizimi shakllantirildi;

uchinchidan, xalqaro standartlar va talablarga asoslangan holda qonunchilik, ijroiya va sud organlari tomonidan inson huquq va erkinliklariga

rioya qilish bo'yicha ko'maklashadigan qo'shimcha milliy institutlar tashkil qilindi;

to'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi,

Bosh prokuraturada o'zining hududiy tarkibiy bo'linmalariga ega bo'lgan inson huquqlar bo'yicha maxsus boshqarmalar ishlab turibdi;

beshinchidan, inson huquqlari masalalari bo'yicha maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar, o'rta maxsus va oliy ta'lim o'quv muassasalari talabalari, tegishli institutlar, markazlar, malaka oshirish kurslari doirasida inson huquqlari sohasida o'z bilim darajasini oshirayotgan davlat xizmatchilari, huquqni muhofaza qilish va sud tizimi xodimlari, pedagogika, tibbiyot va ijtimoiy soha xodimlarini o'z ichiga olgan ta'lim tizimi shakllantirildi;

oltinchidan, O'zbekistonda 1997 yildan boshlab, har yili inson huquqlarining muhim siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini hal qilishga bag'ishlangan amaliyot kiritildi. Masalan, agar 1997 yilini inson huquq va manfaatlariga bag'ishlangan bo'lsa, 1999 yil — ayollar huquqlariga, onalik va bolalikni muhofaza qilishga bag'ishlandi, 2005 yil — sog'liqni saqlash, 2006 yil — xayriya va tibbiyot xodimlariga, 2007 yil — aholini ijtimoiy himoya qilishga, 2010 yil — barkamol avlodni himoya qilishga va 2011 yil — kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlandi;

yettinchidan, O'zbekistoning BMT oldida turli toifadagi fuqarolarning huquqlari bo'yicha mamlakatning xalqaro majburiyatlarini o'z vaqtida bajarganligi to'g'risidagi milliy ma'ruzaning tayyorlanishi va jo'natilishida ifodalanadigan xalqaro talablarga javob beradigan hisobot berish tizimi shakllandi;

O'zbekiston umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarning qoidalarini bajarish doirasida o'zining siyosiy, iqtisodiy va sud-huquq tizimini yanada rivojlantirishi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratishini davom ettirish lozim.

Shunday qilib, O‘zbekistonning inson huquqlari to‘g‘risidagi ko‘plab xalqaro hujjatlarga qo‘shilishi, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasida xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalarida mustahkamlangan inson huquqlarini hurmat qilish, unga rioya etish va himoya qilishga intilish, shuningdek insoniyatning ushbu sohada to‘plagan tajribalaridan foydalanish, inson huquqlarini ta’minlashning optimal mexanizmlarini yaratish borasidagi muammolariga jiddiy munosabatidan darak beradi.

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi davlat idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqlashtirish organi hisoblanadi, ya'ni mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O‘zbekistonning inson huquqlari bo‘yicha milliy ma'ruzalarini tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muxofazasi sohasida axborot bazasi yaratadi, ularni o‘qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlari olib boradi

Markazning asosiy maqsadi - ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo‘li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini - huquq va erkinliklarni himoya etishning ko‘p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish, jumladan:

1. Inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
2. huquqiy yordam ko‘rsatish va inson huquqlarini sud yo‘li bilan himoya qilish;
3. Inson huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish;
4. Turli toifadagilar, ya'ni:
 - a. aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlarini;
 - b. ekologik ofat mintahalarida yashovchi aholini;
 - c. dindorlarni, turli din vakillarini;

- d. ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni;
- e. harbiy xizmatchilar kabilarning huquqlarini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;
- 5. Nohukumat huquqni himoya etish tashkilotlari faoliyatlarining samarali shakllarini rivojlantirish;
- 6. Inson huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish erkinligini ta'minlash;
- 7. Inson huquqlari sohasidagi ta'limning ko'p maqsadli tizimini - alohida ixtisoslashgan kurslardan tortib ommaviy ma'lumot - tanishuv dasturlarigacha tashkil etish;
- 8. Ijro xokimiyati doirasidagi vazirliklar, qo'mitilar, idoralar va muassasalarni inson huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
- 9. O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari va erkinliklari tizimining rivojlanishi asosida xalqaro hamjamiyatga kirish yo'llarini shakllantirish.

O'zbekistonda inson huquqlariga rioya qilish va himoya qilishning dolzarb muammolarini muhokama qilish, bu sohada boshqa mamlakatlarda to'plangan tajribalar to'g'risida axborotlar almashish va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish faoliyatini takomillashtirish boyicha muayyan takliflar shakllantirish uchun Ombudsman huzurida O'zbekistondagi chet el diplomatik vakolatxonalari, xalqaro tashkilotlar, inson huquqlari boyicha milliy institutlar, vazirliklar va idoralar, nodavlat tashkilotlari vakillaridan iborat Maslahat kengashi tashkil etilgan. Maslahat kengashi majlislarida inson huquqlariga rioya qilishning dolzarb masalalari, ombudsman instituti faoliyatini takomillashtirishning amaliy jihatlari muhokama qilinadi.

II bob bo'yicha xulosa

O'zbekiston mustaqillik yillari davomida umuminsoniy qadriyatlar va boy milliy an'analar bilan yo'g'rilgan o'ziga xos rivojlanish yo'lini aniqlab oldi. Shu asosda davlat-huquqiy amaliyotda jahon parlamentarizmining boy tajribasidan unumli foydalanilib, respublika konstitutsiyaviy tuzumida xalq hokimiyatchiligi, hokimiyatlarning bo'linishi prinsiplariga mos davlat organlari tizimini shakllantirildi.

Jamiyat manfaatlarining ifodachisi bo'lmish parlamentlar, aholining turli ijtimoiy qatlamlari guruhlarining vakillaridan tashkil topadilar. Ko'rinib turibdiki, dunyodagi parlamentlar rang-barang, ammo ular o'z mamlakatlarida muhim ijtimoiy vazifa-qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradilar.

O'zbekiston Konstitutsiyasining 10-moddasida, davlat hokimiyatining birdan-bir manbai – xalq nomidan faqat u saylagan Respublika Oliy Majlisi va Prezidenti ish olib borishligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida aytilganidek, davlat hokimiyatining tizimi-qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi. Unga ko'ra, davlat funksiyalari qonun chiqaruvchi organ-Oliy Majlis, davlat va ijroiya hokimiyati rahbari–O'zbekiston Respublikasining Prezidenti va sud hokimiyati o'rtasida taqsimlanadi. O'zbekiston Oliy Majlisi esa davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida huquq liberallasdi. Dastlab huquq jazolovchi vazifani bajargan. Jinoyat sodir qilgan kishidan jamiyat uch olish vositasiga aylangan. Jamiya rivojlanish jarayonida jazolash funksiyasi biroz yumshagan va tarbiyalovchi funksiyasi kuchayib bormoqda. Eng og'ir jazolar jazolash turlari o'zgarib kamayib bormoqda. Jamiyat rivojlangani sayin huquqni ham insonparvarlik mohiyati o'sib bormoqda.

Inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha milliy institutlar faoliyati yo'lga qo'yilgani, sohada uzluksiz ta'lim va ma'rifiy ishlar olib borilayotgani, huquqiy

mavzuda yigirmadan ziyod ixtisoslashgan jurnal va gazeta chop etilayotgani bu boradagi ishlar samaradorligini yanada oshirmoqda.

Inson huquqlari himoyasi juda muhim va dolzarb mavzudir. Bu yoʻnalishda Oʻzbekistonda keng koʻlamli ishlar amalga oshirilgan. Inson huquqlarini taʼminlashning milliy institutlari tizimi yaratilgani, ichki ishlar idoralarida bu masalaga alohida ustuvor ahamiyat berilayotgani eʼtiborga loyiq.

Inson huquqlari masalasiga xalqaro munosabatlarda ham tobora keng ahamiyat berilmoqda. Inson huquqlarini himoya etishga qaratilgan koʻplab Deklaratsiya, hartiya va bitimlar qabul qilingan boʻlib, ularda inson va uning haq-huquqlarini qanday qilib himoya qilish qoidalari, meʼyorlari mustahkamlangan.

Inson huquqlari toʻgʻrisidagi milliy qonunchilik hujjatlari doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi, bugungi kunda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, keyingi paytlardagi qonunchilikdagi oʻzgarishlarni, mamlakatimizdagi sud-huquq islohotlarini alohida qayd etib oʻtish lozim. Jumladan, Deklaratsiyada qayd etilgan, yashash huquqini taʼminlash, mustaqil va xolis sud tomonidan ish adolatli va oshkora tarzda koʻrib chiqilishi huquqi, yaʼni xabeas korpus institutini kiritilishi natijasida 2008 yilning 1 yanvaridan Oʻzbekistonda jinoiy qonunchilikdan oʻlim jazosini chiqarib tashlandi, qamoqqa olishga sanksiya berish esa, prokuraturadan sudlarga oʻtkazildi¹.

Oʻzbekiston Respublikasi inson huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro hujjatlarga qoʻshilar ekan, bevosita ularda mavjud qoida va meʼyorlarni bajarish hamda oʻz ichki qonunchiligida ushbu meʼyorlarni aks ettirish, ularni samarali ravishda amalga oshirish majburiyatini oladi va uning bajarilishini malakaviy ishni yozish jarayonida amin boʻldim.

¹ Batafsil maʼlumotlar uchun qarang: Oʻlim jazosini bekor qilish hamda qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga oʻtkazishga oid normativ-huquqiy hujjatlar toʻplami. – T.: Adolat, 2007. 184-bet.

Umuman olganda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va inson huquqlari bo'yicha paktlarda ko'zda tutilgan huquqlar mamlakatimizda hozirgacha qabul qilingan va doimiy ravishda takomillashtirilib borilayotgan 400 ga yaqin qonunlarda u yoki bu darajada o'z aksini topgan.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatining eng muhim tomonlaridan yana biri, institut eshiklarining murojaat qilayotgan har bir shaxs uchun doimo ochiq bo'lishidir. Boshqacha qilib aytganda, huquqi poymol etilgan shaxs uchun murojaat qilish oson bo'lmog'i kerak. Bunday institutlar xalqqa davlat idoralaridan ham yaqinroq bo'lishi, odamlarning shikoyatlari, arizalarini sinchiklab o'rganishi va eng muhimi ularga yordam berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti shular jumlasidandir. Ularning barchasining vazifasi inson huquq na erkinliklarini himoyalashga qaratilgan.

Takliflar

1. Ombudsmanning hududiy idoralari o'rtasida axborot tarmog'ini o'rnatish lozim bu orqali axborot almashuvi tezlashadi va ish tajribasi yahshilanadi;

2. Milliy va xalqaro mutaxassislarni jalb qilib, muntazam ravishda seminarlar tashkil qilinsa, o'tkaziladigan seminar, trening, mashg'ulotlar orqali Ommaviy Axborot Vositalari, talabalar, inson huquqlari institutlarining hodimlari, hukumat vakillari va aholining bilimi oshadi;

III bob.O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining ma'naviy huquqiy ahamiyati.

3.1.Sud huquq tizimini islohotlarini chuqurlashtirish va qonunchilik bazasini boyitish va takomillashtirish

Mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq 60dan ortiq xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Huquqiy davlatning barcha fuqarolari qonun oldida teng. Qonun jamiyat tinchligi va xavfsizligini muhofaza etadi. Qat'iy tartib va intizom, qonunga hurmat, an'analarga hurmat - huquqiy davlat fuqarolari uchun odatiy hol¹

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning huquq va erkinliklari ustuvorligi hamda oliy qadriyat hisoblanishi huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatiga bo'linishi belgilab qo'yildi. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linishi hozirgi zamon jahon davlatchiligining eng ilg'or tajribalariga mos keladi va xalqaro talablarga to'la javob beradi. Sud-huquq islohoti davomida O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Fuqarolik-protseyesual, Xo'jalik-protsessual kodekslari va boshqa kodekslari, xususan, "Sudlar to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunlar qabul qilinib, ularda sudlar va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berildi, fuqarolarning huquq va manfaatlarini sud tartibida ximoya qilishning samarali huquqiy mexanizmi yaratildi. So'nggi yillarda sud-huquq islohotlarini yanada chuqurlashtirish, qonun ustuvorligini

¹Karimov I.A O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura T.: Ўзбекистон, 1996.15-16 b

ta`minlash hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishini kuchaytirish, jinoyatga oid siyosatni erkinlashtirish, sud ishlarini yuritish qoidalarini takomillashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash yuzasidan talay ishlar amalga oshirildi.

Asosiy yo`nalishlari davlatimiz boshlig`ining nutq va ma`ruzalarida belgilab berilgan sud-huquq islohotini amalga oshirish natijasida mamlakatda yaxlit sud tizimi yaratildi, sudyalarning mustakilligi kafolatlari kuchaytirildi, jinoiy jazolar liberallashtirildi, ishlarni sudlarda ko`rib chiqishning protsessual tartibi takomillashtirilib, odil sudlovni amalga oshirish tezkorligini ta`minlash choralari kurildi. Mana shu va boshqa chora-tadbirlar ijobiy natijalar berdi, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga jiddiy ta`sir ko`rsatdi.

Bu borada amalga oshirilgan ishlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

Birinchidan, sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirildi. Fuqarolik ishlari, xo`jalik ishlari va jinoiy ishlar bo`yicha alohida-alohida sudlar tashkil etildiki, bu hol sudlov ishlarini yuritishning sifatini ancha oshirish imkonini berdi. Masalan, agar 2000 yilda hukmlarni bekor qilish va o`zgartirish sudlanganlarning umumiy soniga nisbatan 10,5 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2006 yilda bu ko`rsatkich 3 foizdan kamroq bo`ldi.

Ikkinchidan, hokimiyatni taqsimlash konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirish uchun sudlarni tashkiliy jihatdan, xususan, sudya kadrlar bilan ta`minlash masalalari bilan maxsus organ - O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo`yicha oliy malaka komissiyasi shug`ullanmoqda.

Sudyalik lavozimlariga nomzodlar taqdim etish, sudyalarning vakolatlarini to`xtatib qo`yish va muddatidan ilgari tugatish, sudyalarga nisbatan intizomiy ish qo`zg`atish, sudlarning faoliyati to`g`risidagi hisobotlarni muntazam eshitib borish kabi huquqlar ijro qiluvchi organ bo`lganligi sababli

Adliya vazirligining vakolatlari doirasidan chiqarildi. Bu hol sudlar Adliya vazirligining ta'siridan to'la-to'kis holi bo'lganligini anglatadi.

Sudyalar zahirasini shakllantirish bo'yicha sudyalarning malaka hay'atlarining vakolatlari kengaytirilib, ular zimmasiga sudya kadrlarning dastlabki zahirasini yaratish vazifasi yuklatildi.

Sudya kadrlarni tanlash va tayinlashning demokratik huquqiy mexanizmi yaratildi, sudyalik lavozimlariga nomzodlar tanlashning ko'p bo'g'ish tizimi nazarda tutildi.

Uchinchidan, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan holi etildi. "Sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi sud ijrochilarini sud tizimidan chiqarib, ijro qiluvchi hokimiyat tizimiga o'tkazish imkonini berdi, bu esa hokimiyatni taqsimlash prinsipiga to'la-to'kis mos keladi. Ushbu Qonun qonunchilikdagi kamchiliklarga barham berish bilan bir vaqtda ijro ishi yuritilishining samaradorligini oshirishga, shuningdek, sud ijrochilari faoliyatini tartibga solishga, ularning huquqlari, majburiyatlari va maqomini qonun orqali mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, ijro ishi yuritilishida sud ijrochilarining mas'uliyatini oshirishga, fuqarolar hamda yuridik shaxslar huquqlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. "Sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning vazifasi - har bir sud qarori moneliksiz ijro etilishini ta'minlashdan iboratdir.

To'rtinchidan, 2001 yil 29 avgustda "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrirda) qabul qilinishi orqali prokuratura vakolatlarining hajmi, uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilandi, prokurorlarning bir qator vakolatlari cheklab qo'yildi. Masalan, Qonunning avvalgi tahriridan farqli o'laroq, yangi tahrirda fuqarolar prokuror nazorati obyektlari doirasidan chiqarildi. Demokratik jamiyatda ayrim fuqarolar emas, balki ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga qanday rioya etilayotganligi masalasi prokuror nazorati obyekti hisoblanadi. Prokuratura organlari fuqarolar huquqlari kamsitilish hollarining o'z vaqtida oldini olish

maqsadida boshqaruv va nazorat organlari huquqiy hujjatlarining qay darajada qonuniy ekanligini kuzatib borishlari kerak. Bundan tashqari, "Prokuratura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq prokurorlar sud qarorlarining ijrosini to'xtatib qo'yishga haqli emaslar. Bu norma qonun hujjatlariga kiritilgan boshqa o'zgartish va qo'shimchalar bilan bir qatorda sudlarning mustaqilligini ta'minladi, sud va prokuratura organlari vakolatlari o'rtasida zarur muvozanat o'rnatishga ko'maklashdi.

Beshinchidan, sudlov ishlarini yuritish sohasida sud qarorlarining qonuniyligi, asosliliigi va adolatliligini tekshirishning apellyatsiya tartibi joriy etildi, shuningdek, kassatsiya instituti isloh qilindi. Mazkur yangiliklar jinoyat ishini sudda yuritishda protsessning tortishuvchanligini va taraflarning teng huquqliligini, shu jumladan prokuror va advokatning teng huquqliligini ta'minlaydi. Sud yo'l qo'yan xatolarni tezkor ravishda bartaraf etishga ko'maklashadi. Masalan, agar apellyatsiya instituti joriy etilguniga qadar sudlar yo'l qo'yan xatolarning 50 foiziga yaqini sudlar va prokuratura organlari tegishli mansabdor shaxslarning protestlari bo'yicha nazorat tartibida tuzatilgan bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib bu ko'rsatkich 18 foizdan kamni tashkil etadi. Sud xatolarining 82 foizidan ortig'i taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi ta'minlangan apellyatsiya hamda kassatsiya instansiyalarida tuzatilmoqda.

Oltinchidan, ayblanuvchilarni qamoqda saklab turishning eng ko'p muddati olti oyga qisqartirildi. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyot choralarini qo'llash imkoniyati kengaydi. Buning natijasida so'nggi 4 yil ichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasidan foydalanish 2 martadan ko'proqqa kamaydi.

Yettinchidan, qonunchilikda ilk bor sudlarda ishlarni ko'rib chiqishning muddatlari belgilandi, bu esa muqaddam sudlar faoliyatida mavjud bo'lgan sansalorlikka chek qo'yib, sud muhokamasi qisqa vaqt ichida va tezkor o'tkazilishini ta'minlash imkonini berdi. Agar 2000 yilda jinoyat ishlarining bir foizi sudlar tomonidan belgilangan muddatlarni buzgan holda ko'rib chiqilgan bo'lsa, so'ntti yillarda bunday salbiy ko'rinishlar kamday-kam uchraydi.

Masalan, 2006 yilda jinoyat ishlarining bor-yo`g`i 0,02 foizi sudlar tomonidan belgilangan ikki oylik muddat buzilgan holda ko`rib chiqilgan.

Sakkizinchidan, yarashuv instituti joriy etildi. Buning mohiyati shundaki, ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyat sodir etgan shaxs o`z aybiga iqror bo`lganda, shuningdek, jabrlanuvchi yarashishda ixtiyoriy ravishda ishtirok etish istagini bildirgan va jabrlanuvchining ko`rgan zarari o`rnini qoplagan taqdirda, yarashuv munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi. Ta`kidlash kerakki, bu institut o`zbek xalqining milliy qadriyatlarini o`zida aks ettiradi. Bunday norma joriy etilganligi tufayli 2002-2007 yillar 60 ming nafardan ortiq kishi jinoiy javobgarlikdan ozod etildi va binobarin xuddi shuncha jabrlanuvchining xuquqi tiklandi.

To`qqizinchidan, jinoyat qonuni keng ko`lamda liberallashtirildi, jinoyatlar tasnifi qayta ko`rib chiqildi va o`zgartirildi; uncha og`ir bo`lmagan va ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoiy qilmishlarning tarkibi kengaytirildi. Bundan tashqari bir qator iqtisodiy jinoyatlar bo`yicha yetkazilgan moddiy ziyonning o`rni qoplangan taqdirda, ozodlikdan mahrum etish bilan bog`liq bo`lmagan jazolar qo`llash nazarda tutildi. Jinoyatlarning tasnifi o`zgarishi va jinoiy jazolarni liberallashtirish natijasida sudlar ozodlikdan mahrum etish bilan bog`liq bo`lmagan jazo choralarini kengroq qo`llash imkoniga ega bo`ldilar.

Jinoiy jazo tizimini erkinlashtirishga doir chora-tadbirlar ham ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo`ldi. Buning natijasida og`ir va o`ta og`ir toifadagi jinoyatlarning 75 foizga yaqini ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyatlar toifasiga o`tkazildi. Jinoyat kodeksidagi jinoyat sodir etgan shaxs yetkazilgan moddiy zararni to`liq qoplagan taqdirda, sud tomonidan unga nisbatan ozodlikdan mahrum etish tariqasida jazo tayinlashga yo`l qo`yilmaydigan normalar ancha kengaytirildi.

Mazkur o`zgarishlar qabul qilinganidan so`ng sudlarning ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni tayinlashi 2006 yilda 2000 yilga nisbatan qariyb 20 foizga kamaydi. Shuningdek, yarashuv instituti joriy etilgani ham bu borada muhim rol o`ynamoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari bayon etilganlardan ko`ra ko`proq sohalarni qamrab oladi va uni alohida tadqiq etish lozim.

Davlatimiz boshlig`ining O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisida so`zlagan nutqi mamlakatda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotining yangi bosqichi uchun asos bo`ldi.

Mamlakatimiz Prezidentining tashabbusiga binoan parlament tomonidan qabul qilingan "Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o`tkazilishi munosabati bilan O`zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, daxlsizligini sud tomonidan samarali ximoya qilish borasidagi bir qator vazifalarni hal etishga qaratilgan. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sud tartibida qo`llashni nazarda tutuvchi mazkur Qonunning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Jinoyat protsessida shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish niyatida jinoyat-protsessual qonunlarni yanada liberallashtirish. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini sud tartibida ko`llash erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini asossiz cheklashning oldini olish imkonini beradi.

2. Taraflarning tortishuvi va tengligi prinsiplariga muvofiq amalga oshiriladigan fuqarolarning adolatli sud muhokamasiga bo`lgan huquqlarini ro`yobga chiqarishda sudning rolini oshirish.

3. Ishni sudga qadar yuritish ustidan prokuror va sud nazorati nisbatini ta`minlashga, fuqaroni ushlab turish va qamoqqa olish asosli hamda qonuniy bo`lishi uchun tergov organlarining mas`uliyatini oshirishga qaratilgan.

4. Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini ko`llash va qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish inson huquqlarini cheklab qo`yish tusiga ega bo`lganligini e`tiborga olgan holda bu chorani ko`llash asoslarini, protsessual tartibini qat`iy reglamentlash.

Prezident I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasida "Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir", deb ta'kidladilar.

Haqiqatdan ham inson, uning hayoti jamiyatimizda oliy qadriyat deb tan olingan ekan, uni, hatto jinoyatchini ham hayotidan mahrum qilish masalasi nihoyatda ehtiyotkorona munosabatni talab qiladi.

O'lim jazosini qoldirish tarafdorlari jinoyatchilikning ko'payib borayotganligi va ushbu jazoni qo'llash orqali "ijtimoiy adolat tiklanajagini" asos sifatida ko'rsatadilar.

O'z yechimini kutayotgan muammolar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar talaygina. Fikrimizning dalili sifatida O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 apreldagi Qonuniga asosan JKning 58-moddasiga jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va unga suiqasd qilish uchun jazo tayinlashga oid kiritilgan o'zgartirishlarni keltirish mumkin. Bu ham davlatimizda insonparvarlik, adolat g'oyalari rioya qilinayotganligining bir isbotidir.

2008 yilning "Yoshlar yili" deb e'lon qilinganligi munosabati bilan "Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid qonunlarning takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 2008 yil 16 apreldagi Qonuniga muvofiq qator qonunlarga voyaga yetmaganlarning huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Aytish joizki, voyaga yetmaganlar jinoyati kamaydi. Voyaga yetmaganlar jinoiy yoki g'ayriqonuniy faoliyatga jalb etganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi.

Hozirgi vaqtda odamlar savdosiga qarshi kurash ham eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. 2007 yil fevralda Venada, ushbu muammoga bag'ishlangan xalqaro konferensiya materiallarida ko'rsatilishi, har yili 2,7 mln.ga yaqin shaxs ushbu jinoyatning "qurboni" bo'lmoqda, ularning 80%

bolalar va ayollardir. Ushbu hodisaga qarshi kurash masalasi respublikamizda davlat miqyosida hal qilinmoqda.

2008 yil 17 aprelda “Odamlar savdosiga qarshi harakatlar” to`g`risidagi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlarining mantiqiy davomi sifatida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi “O`zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish choralari to`g`risida”gi Farmonini keltirish mumkin.

Sud hokimiyati – O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bob, 106-moddasiga ko`ra, O`zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sud ishlari konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoiy, ma`muriy va xo`jalik turlariga bo`linadi. Sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo`jalik ishlari bo`yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi.

Sud hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan muhim farqi mamlakatda amal qiluvchi butun sud tizimiga, har bir sudga tegishlilikidir.

2010 yilga kelib, Prezident I.Karimov va parlament sa`y-harakatlari bilan uchinchi hokimiyat – sud tizimi sohasida quyidagi islohotlarni amalga oshirishga erishildi:

1) jinoiy jazoga sanksiya berish huquqi prokuratura organlaridan sud tizimiga o`tkazildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta`minlashga katta e`tibor berildi;

2) advokatlarning mavqei va roli oshirildi; advokatura instituti isloh qilindi;

3) jinoiy jazo tizimi liberallashtirilib, o`lim jazosi Jinoiy kodeksdan (2008 yil 1 yanvar) olib tashlandi va uning o`rniga uzoq muddatli, umrbod qamoq jazosi belgilash tartibi o`rnatildi; prokuratura faoliyati takomillashtirildi;

4) sud mustaqilligi ta`minlandi;

5) fuqarolik va jinoiy ishlar bo`yicha sudlar tashkil qilindi;

6) sudlar faoliyati moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan mustahkamlanmoqda;

7) sud sohasi uchun kadrlarni tanlash va tayinlash mexanizmi mustahkamlanmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud hokimiyati sohasidagi islohotlarni shartli ravishda quyidagi⁴ bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda (1991-1995 yillar) sud hokimiyati tizimini isloh qilishning milliy strategiyasi belgilab olindi va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi, shuningdek, jahon tajribasini hisobga olib, birinchi marta mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud ta'xis etildi. Sud hokimiyatining tarkibiy qismi sifatida xo'jalik sudlari tashqil etildi.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida so'zlagan nutqi mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi¹.

Ikkinchi bosqichda (1996-1999 yillar) mavjud tajriba va qonunchilikni tahlil qilish asosida sud hokimiyati tizimi islohotlarini chuqurlashtirish, odil sudlov tizimini demokratlashtirish, sud jarayonida ayblov va himoyani amalda tengligini ta'minlash va buning uchun advokatura mavqeini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi Prezidentimiz Islom Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI (1996 yil 29 avgust)² va XIV sessiyalaridagi

(1999 yil 14 aprel)³ ma'ruzalarida belgilab berilgan vazifalari hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda (2000-2004 yillar) sudlarni ixtisoslashtirish, jinoiy jazolarni liberallashtirish, odil sudlov sifatini oshirish, ishlarni ko'rish

¹ Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat I O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. - T.: «O'zbekiston», 1996y.,104-139-b

² Karimov I.A. Xozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari //Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.5. - T.: «O'zbekiston», 1997.- 104-131

³ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda // Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. - T.: «O'zbekiston», 1999. - 370-404-b

muddatlarini qisqartirish, fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqishning apellyatsiya tartibini. joriy etish, kassatsiya tartibini isloh qilish, sud qarorlari ijrosini ta'minlashni takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning I (2000 yil 22 yanvar)¹, VI (2001 yil 29 avgust)², IX (2002 yil 29 avgust)³ sessiyalaridagi ma'ruzalari mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi. To'rtinchi bosqichning (2005- h.v.) asosiy vazifalari mustaqil rivojlanish yillarida to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari asosida sud hokimiyati tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish orqali sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini, insonning yashash huquqini va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud va huquqni muxofaza qilish organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish va aniq chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bisqichidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud huquq tizimini izchili demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Yurtimizda aholining huquqiy davlatr asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongini madaniyatini yuksaltish biz uchun ahamiyatli vazifalardan biri hisoblanadi. aholining huquqiy madaniyatining osishi orqali biz uning qonunlarga rioya qilishini, hamda ularga ma'lum bir munosabatlarini bildira olishini ta'minlaymiz. Sud hokimiyatini

¹ Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot - provard maqsadimiz. T.8. - T.: «O'zbekiston», 2000. - 330-351-b.

² Karimov I.A Adolat – qonun ustuvorligida // Xavfsizlik va tinchlik uchun ko'rashmoq kerak. T. 10. -T.: «O'zbekiston», 2002. - 26-52-b.

³ Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirshva fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari // Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. - T.: «O'zbekiston», 2003. - 3-51-b

bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas, balki inson va fuqoro huquq va erkinliklarini ishochli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida "sudlar to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual, qonunchiligiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi bu esa o'z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati taqdim etish, sudyalarning vakolatini tuhtatish va muddatidan oldin tugatish ularga nisbatan intizomiy ish yuritishni sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash hususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug'ullanish vazifasi maxsus organ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuriga sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etishimiz lozim. Shular qatoriga O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuriga maxsus vakolatli tuzulna-Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy texnik va moliyaviy ta'minlash departaminti tashkil etildi. Bu esa sudlarning ularga xos bo'lmagan vazifalardan sezilarli darada halos bo'lishini va butun diqqat e'tiborini o'zlarining asosiy burchi bo'lmish odil sudlovni amalga oshirish uchun qaratish imkonini berildi.

Jamiyatning demokratiya yo'lidan jadal rivojlanishi va u borada amlaga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan odamlarning huquqiy onggi va huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Yuksak huquqiy madaniyati-demokratik jamiyati va poydevori va huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichidirt.

Shu munosabati bilan, bugungi siyosiy-huquqiy voqealikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan maqsadli ken ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zaruz. Ushbu dasturning amalga oshirilishi

aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat munosabatda bo'lishni, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg'usining yanada oshirishini ta'minlaydi.

Albatta, amalga oshirilgan choralar sud-huquq islohotlarining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi, ammo quyidagi masalalarni ham yanada takomillashtirishimiz, liberallashtirishimiz zarur:

1. Aholining huquqiy madaniyatini yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yangilash, aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda Konstitutsiya va qonunga hurmat va itoatkorlik tuyg'usini yanada yuksaltirishni ta'minlash.
2. Sud tizimi islohotlarni yanada chuqurlashtirishimiz, qonun meyorlarni liberallashtirishimiz kerak. Sud huquq tizimini tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirish lozim.
3. Sud huquq tizimi hodimlarining ham professionallik jihatini oshirish hamda qonunni hamma narsadan ustun qo'yish tamoyilini singdirish. Mansabdor obro'li shaxslarning iltimoslarini ko'rsatmalari, iltimoslari mintalitetimizdagi "qo'shtirnoq ichidagi tushunchalar ayrim hollarda qonundan ustun qo'yiladi. Bu bizning huquqiy-siyosiy madaniyatimizdagi axloqiy ma'naviyatimizdagi kamchiliklarga o'tmishdan qolgan illatlarga borib taqaladi bu kamchiliklarni bartaraf qilish asosiy vazifalarimizdan biridir.

3.2. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yuzasidan o'lg'a surilgan tashabbuslar.

Mustaqiligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitusiyamizda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarining mustaxkamlab qo'yilgani barcha aholi qatlamlariga manfaatlarini aks etiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida 5100 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda va bu kursatgich 2000 – yilga karaganda 2,5 barobar ko'pdir. Fuqaroalar yig'inlari va o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar son 10 mingdan ortiqni tashkil etadi. Bular qatorida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, O'zbekiston xotin- kizlar qo'mitasi, «Sog'lom avlod uchun», «Nuroni» jamgarmasi, «Ijod» fondi, Nodavlat notijorat tashkilotlar milliy assotsiatsi va boshqa jamoat tashkilotlarini sanab o'tish mumkin.

Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarini hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ruyobga chiqishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faoligi va huquqiy madaniyatini oshishi uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga kumaklashmoqda.

Bunday tashkilotlarning obrusi oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat to'zilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarochilik nazorati institutlari davlat bilan o'zaro samarali aloqani ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Huquqshunos olimi M. Usmonova ko'rsatib o'tganidek: "Kuchli ijtimoiy himoya O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish davridagi bosh tamoyillardan biri sifatida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab

barcha aholi qatlamlarini, 1994-1995 yillardan boshlab esa ko'p bolalik va ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan oilalarni, nogironlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilib kelmoqda".¹ Uning fikrini inobatga olgan holda aytish kerakki, mazkur tizimi kam ta'minlangan, ko'p bolali muxtoj oilalarga, mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nisbatan qo'llandi va shu maqsadda maxsus qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni², Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida" qarori³shular jumlasidan.

Bizning fikrimizcha, bu davr - asosan davlat ijtimoiy siyosatini kuchaytirish va ijtimoiy himoyaning nodavlat subyektlari imkoniyatidan foydalanish bo'yicha qonunchilik asoslarini yaratish davri bo'ldi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1994 yil 23 avgustdagi PF-938-son Farmoni, "Bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1996 yil 4 martdagi PF-1383-son Farmoni, "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi 1996 yil 10 dekabrda PF-1657-son Farmoni, "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida" gi 1999 yil 13 yanvardagi PF-2177-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini shakllantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1994 yil 20 iyundagi 308-son qarori, Vazirlar Mahkamasining "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilishni tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 434-son qarori, Vazirlar

¹ M.A. Usmonova. "Ijtimoiy himoya tamoyillari". Demokratlashtirish va inson xuquqlari. 2004 yil, №2, 33-bet.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari. № 3. T., "Adolat", 1995 y., 90-b.

³ O'zbekiston Respublikasining Hukumati qarorlari to'plami. 1994 y., 8-son, 40-modda.

Mahkamasining “Bolali oilalarni ijtimoiy ko‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 437-son qarorlari shular jumlasidandir.

To‘rtinchi bosqich - 2000 yilning oxirlaridan, aniqrog‘i 2001 yil boshidan boshlangan bo‘lib, hozirga qadar davom etmoqda.

Bu davr oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo‘naltirilgan tarzda qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish to‘g‘risida”gi 2002 yil 25 yanvardagi PF-3017-son Farmoni, “Ijtimoiy himoya yili davlat dasturi to‘g‘risida”gi 2007 yil 23 yanvardagi PQ-573-son qarori, “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2007 yil 19 martdagi PF-3864-son Farmoni, “Yosh oilalarni moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2007 yil 18 maydagi PF-3878-son Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi 2008 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2007 yil 12 dekabrda PQ-744-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2009 yil "O‘zbekiston Respublikasining 2010 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1245 – son qarorlari qabul qilindi.

Bizning fikrimizcha, huquqshunos olimlarimiz tomonidan ijtimoiy himoya tizimi huquqiy asoslarining bunday davrlarga bo‘linishi *shartli ravishda* ekanligini e‘tibordan chiqarmaslik kerak. Agar yurtboshimizning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining mustaqillikning 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasiga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak, yurtboshimiz I.Karimov yurtimiz bosib o‘tgan va oldimizda turgan vazifalarning ma‘no-mohiyati va ahamiyati haqida so‘z yuritganda, bu yo‘lni ikki davrga ajratish to‘g‘ri bo‘lishini qayd etgan edi¹:

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 2007 yil. – B. 4-5.

1. O'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga olgan dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar.

2. 2001 yildan 2007 yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri.

Yurtboshimiz o'z ma'ruzalarida bu ikkala davrning o'ziga xos jihatlari xususida to'xtalib, xususan ijtimoiy himoyaga oid quyidagicha fikrlarini bayon etdilar: "Ijtimoiy nuqtai nazardan boshlang'ich bosqichda, iqtisodiyotni va butun jamiyatni isloh qilishning eng murakkab o'tish davrida kuchli ijtimoiy siyosat yuritish va aholini himoya qilishning o'xshashi bo'lmagan, samarali mexanizmi ishlab chiqilib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ko'makka muxtoj oilalarga moddiy yordam berishda asosan o'zini o'zi boshqarishning noyob tuzilmasi bo'lmish mahalla instituti imkoniyatlaridan foydalanish o'zini to'la oqladi. Bu avvalambor zarur moddiy va ma'naviy yordamni ochiqlik va oshkoralik tamoyillari asosida aniq yo'naltirish – aholining haqiqatan ham nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ularni o'tish davrining qiyinchiliklaridan ishonchli himoya qilish imkonini berdi".

Respublika Prezidenti ijtimoiy himoya sohasida taraqqiyotimizning birinchi bosqichida erishilgan bu kabi yutuqlar asosida keyingi bosqichda oldimizda turgan dolzarb vazifalar xususida ham to'xtalib, davlat hokimiyati markaziy organlarining bir qator vakolat va vazifalarini, avvalambor, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish, odamlarni ish bilan ta'minlash va aholi manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakolatlarini mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazish jarayoni amalga oshirilayotganligini ta'kidladilar.

Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda nodavlat ijtimoiy himoyasiga berilgan e'tibor asosan keyingi bosqichdan yanada faol tus ola boshladi.

Jumladan, 2006 yilning – “Homiylar va shifokorlar yili” deb e’lon qilinishi mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoyalash tizimining rivojiga ulkan ta’sir ko’rsatdi. Jumladan, homiylik faoliyatining qonuniy kafolatlanishi va ijtimoiy nuqtai nazardan keng e’tirof etilishini taminlash maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan "Homiylar to’g’risida"gi qonun loyihasi birinchi o’qishda qabul qilindi. Mazkur qonun loyihasida davlat jamiyati va boshqaruv organlari tomonidan homiylik faoliyatini qo’llab-kuvvatlashning mavjud shakllarini, O’zbekiston hududida homiylik tuzilmalarini tashkil etish tartibi, ularning maqomi va faoliyat yo’nalishlarini belgilab berdi

Mamlakatimizda Ombusman, Inson huquqlari boyicha milliy markaz, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik markazi, Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti kabi inson huquqlari boyicha milliy institutlar va boshqa bir qator tashkilotlar faoliyat kursatmoqda.

O’tgan davr mobaynida mamlakatimizni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik institutlarining roli va ahamiyati kuchaytirishga, fuqarolarning eng muhim sotsial-iqtisodiy muammolarini xal etishga karatilgan 200 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu soha rivojiga bulgan katta e’tiborni kursatadi.

Aytish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlari tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarini tobora rivojlantirish, ularning mustaqil ish yuritish va chinakam mustaqiligini ta’minlash, huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilish, faoliyatini tashkiliy – huquqiy , moddiy – texnikaviy jixatdan qullab quvvatlashni kuchaytirishga karatilgan «Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to’g’risida»gi Qonunning qabul kilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

So’nggi yillarda «Jamoat fondlari to’g’risida»gi, «Xomiylik to’g’risida»gi, qonunlar, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga kumaklashish chora – tadbirlari to’g’risida»gi qarori va boshqa qator hujjatlar qabul kilindi va

fuqarolik jamiyati institutlari faolligini kuchaytirishga muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senat kengashlarining «Nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qullab quvvatlashni kuchaytirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi qo'shma qarori ham alohida ahamiyatga ega buldi. O'z navbatida Oliy Majlis xo'zurida Jamoat fondi tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar, moliyaviy to'zilmalarning masul xodimlari kirgan Parlament komitsiyasining tashkil qilinishi ham e'tiborga sazovordir.

Mazkur komitsiyaning faoliyati «uchinchi sektor» deb nom olgan fuqarolik jamiyati institutlarini qullab quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilgan moliyaviy mablag'larni yanada ochiq, oshkora, aniq yunaltirgan va eng muhimi, demokratik asosda taksimlashni ta'minlash imkonini bermoqda. bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashqilish - texnikaviy va iqtisodiy negizini mustaxkamlashga samarali ta'sir kursatmoqda.

Faqat keyingi uch yilining o'zida fuqarolik jamiyati institutlari taqdim etgan turli ijtimoiy loyixalarni amalga oshirish uchun Oliy Majlis xo'zuridagi Jamoat fondi tomonidan 11 milliard sumdan ortiq mablag' ajratildi.

Yurtimiz taraqqiyotining hozirgi boskichida nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik institutlari rolini yanada kuchaytirish fuqarolik jamiyatini shakllantirish, demokratlashtirish va mamlakatimizning jaxon xamjamiyatiga integratsiyalashuvi bo'yicha o'z oldimizga qo'ygan maqsadimizni ruyobga chiqishda hech bir mubolag'asiz hal qiluvchi omil ekanini, uylaymanki, kimgadir uqtirib utirishga zarurat bulmasa kerak.

Fuqarolik jamiyati institutining yana rivojlanishiga erishish,amalga oshirilayotgan islohatlarimizning ochiq – oshkoraligi va samarmadorligini ta'minlashda, uning rolini kuchaytirishda «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi Qonuning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ijtimoiy –

iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni xal etish, mamlakatimiz aholisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlarning to'zilmalari bilan o'zaro munosabatlaridagi aniq chegaralarni belgilash va tashkil qilish - huquqiy mexanizmlarini tmaqomillashtirish kabi masalalar boyicha huquqiy norialar ko'zga tutilishi darkor.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – maxalla faollarining tashkiliy asoslarini yanada takomilashtirish, uning vazifalari kulamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifalarni xal qilishda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga tegishli o'zgartish va qo'shimchalari kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallani aniq yunaltirilgan asosda aholini ijtimoiy qullab quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish, shuningdek, uning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarni yanada kengaytirishga jiddiy e'tibor karatish lozim.

Shu bilan birga, «fuqarolar yig'ini raisi(oqsoqoli) va uning maslaxatchilari saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari raislari saylovi tizimini yanada takomillashtirish boyicha oqsoqollar va ularning maslaxatchilari eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini fuqarolar ijtimoiy faolligini kuchaytirishda mahallaning ahamiyati va roli oshirilishini ta'minlaydigan chora – tadbirlarni nazarda to'tadigan o'zgartish va qushimchalar kiritish taklif kilinadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamiyat fuqarolik institutlari nazarotini amalga oshirishning tizimli va samarali huquqiy mexanizmini yaratishga qaratildan «O'zbekiston Respublikasi jamotchilik nazorat to'g'risida»gi Qonunni qabul qilish fursati yetdi. Qonunda jamoatchilik nazoratining turlari, shakillari va subektlarini, nazorat predmetini, uni amalga oshirishning huquqiy

mexanizmlarini, shuningdek, mazkur saxada amaldagi qonun hujjatlarini ijro etmagani uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi shartlarini belgilab qo'yish zarur.

Shu nutqai nazardan qaraganda, Inson huquqlari sohasida milliy harakat dasto'rini ishlab chikish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu dastur, eng avvalo, huquqni muxofaza qilish va nazorat organlari tomonidan inson huquq va erkinliglarining himoya qilinishini ta'minlash, jamiyatda inson huquqlari bo'yicha madaniyatni shakllantirish va shu kabi boshqa sohalarga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan jamoatchilik monitorini olib borishga karatilgan chora – tadbirlarni o'zida mujassam etishi kerak.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga jamiyat va davlat qurilishi, xududlarda ijtimoiy - - iqtisodiy rivojlanishning turli sohalarida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlarini belgilab bergan qonun hujjatlari talablarini bo'zgani uchun davlat organlari mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirishni nazarda to'tadigan o'zgartish va qo'shimcha kiritish lozim.

Shular qatorida sog'likni saklash, atro – muhitni muxofaza qilish, aholini. Ayniksa yoshlarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamlarni qullab – quvvatlash va shu kabi sotsial ahamiyat molik masalalar boyicha muhim davlat dasto'rini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtirokining huquqiy asosini yaratib beradigan qonun hujjatlari majmuasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, atrof – muxitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va urnini belgilashga karatilgan «Ekalogik nazorat to'g'risida»gi Qonun ishlab chikish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati etdi, deb uylayman.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari shakllantirildi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining negizini tashkil etuvchi nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish ustuvor vazifa bo'lib turibdi. Mustaqillik inom qilgan yutuqlarni, zafarlarni

mustahkamlash va uning qadr qimmatiga etish, ko'z qorachig'iday avaylab-asrash ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish va tom ma'noda erkin, ozod va mustaqil bo'lishga butun vujudimiz aqlu zakovatimiz bilan harakat qilmog'imiz darkor.

1. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'z oldiga erkin, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida bosqichma-bosqich fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlarini, xususan, uning muhim bo'g'ini hisoblangan jamoat tashkilotlarini jamiyat hayotidagi o'rni va rolini mustahkamlash va oshirish borasida tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

2. Yaqinda matbuotda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari Kengashlarining "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qarori bu boradagi yana bir muhim odimdir.

3. "Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'shma qaroriga kelsak, ushbu hujjat O'zbekistonda mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish, taraqqiyotimizning strategik maqsadini — "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" g'oyasini ro'yobga chiqarish bo'yicha keng ko'lamli, tizimli, izchil ishlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Mazkur qaror mamlakatimizda izchil va tizimli ravishda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy davomidir. Shu o'rinda birgina joriy yilning boshidan buyon demokratik taraqqiyot yo'lida amalga oshirib kelinayotgan tom ma'noda tarixiy tadbirlarni sanab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Obod Turmush Davlat dasturi izchil amalga oshirilmoqda. O'ziga xos bo'lmish "oilaviy tadbirkorlik", yosh oilalarni uy joy bilan ta'minlash va ularga "imtiyozli kreditlar ajratish to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi.

Ana shu qonunlar, dasturlar, farmon va qarorlar, amaliy qadamlar, ta'sirchan chora-tadbirlar yurtimizning barcha sohalarida teran va hayotbaxsh

islohotlarni hayotga tadbiq etishda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishga qaratilgan “O‘zbek modeli”ning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bosqichma-bosqichlik tamoyiliga izchil amal qilinayotganini to‘la tasdiqlaydi.

Bu, jumladan, faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davrida O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini shakllantirish hamda erkin rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy shakllarini, iqtisodiy va huquqiy kafolatlarini yaratishda o‘z ifodasini topdi. Fuqarolik jamiyati institutlarining demokratik o‘zgarishlar va jamiyatni erkinlashtirishdagi faol ishtirokini ta’minlash borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli, bosqichma-bosqich va izchil ishlarimiz misolida yaqqol namoyon bo‘ldi.

4.Fuqarolik jamiyati institutlari, ayniqsa, nodavlat notijorat tashkilotlarining adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishdagi o‘rni beqiyos. Avvalo, bu tuzulmalar aholining turli ijtimoiy va sotsial guruhlarini manfaatlarini ifodalaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlari iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, demokratik tafakkurni va demokratik ko‘nikmalarni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Ular fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligini oshirishga, ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi.

5.Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan bir qatorda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning ko‘lamini kengaytirishda va chuqurlashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bois mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish borasida bir qator jiddiy ishlar qilindi. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil etuvchi qonunchilik tizimi yaratildi. Jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat fondlari faoliyatining kafolatlari to‘g‘risidagi kabi o‘ndan ortiq qonun qabul qilindi.

Hozirgi vaqtda ularning soni 5100 tadan oshdi. Nodavlat notijorat tashkilotlari turli tashkiliy-huquqiy shakllarda — jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, assotsiatsiyalar, markazlar, ittifoqlar ko‘rinishida ish olib bormoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal etishga keng jalb qilish, odamlar tafakkurida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning muhim omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish ham, davlat va jamiyat qurilishidagi islohotlar ham, ma‘naviy tiklanish va yuksalish borasidagi chora-tadbirlar ham ijtimoiy adolat tamoyiliga tayanib olib borildi. Ijtimoiy adolatning ta‘minlanishi jamiyat barqarorligi asosini tashkil etdi, odamlarning davlatga va isloxotlarga ishonchini mustahkamladi. Chunki adolatparvarlik g‘oyasi xalkimizning ongiga, ma‘naviyatiga ming yillar davomida chuqur singgan, uning qadriyatlar tizimiga muhim o‘rin egallaydi. Adolatparvarlik g‘oyasida dunyoviy va diniy qadriyatlar birlashib ketgan. I.Karimovning “Odamlar qiyinchiliklarga chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi” degan so‘zlari isloxotlarni amalga oshirishning ma‘naviy mezonlaridan biriga aylandi.

Ijtimoiy adolat tushunchasidan kelib chiqib, islohotlar jarayonida “Jamiyat haddan tashqari boylarga va haddan tashqari kambag‘allarga ajralib ketishiga yo‘l qo‘yishag bizning haqqimiz yo‘q”¹, -deb yozadi davlatimiz raxbari. Jamiyat keskin ijtimoiy-sinfy tabaqalanib ketishining oldini olish, aksincha, iktisodiy, ijtimoiy, siyosiy barqarorlikning negizi hisoblanadigan o‘rta sinfni asta-sekin shakllantirish, muhtojlarga moddiy yordam ko‘rsatish O‘zbekistonda ijtimoiy islohotlar o‘tkazish va uni chuqurlashtirish konsepsiyasining asosiy tamoyillaridan biridir. Shu sababdan o‘tish davri islohotlarning ikkinchi bosqichida ham ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish, ijtimoiy adolatni ro‘yobga chiqarishda mahallaning rolini oshirish va mahalla institutini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifalari

belgilandi. Shuningdek, aholini zarur iste'mol mollari, ijtimoiy-maishiy xizmat turlari bilan ta'minlash, bandlik muammolarini hal etib borish, ijtimoiy infratuzilmaning moddiy bazasini rivojlantirish, aholi punktlari, posyolkalar va qishloqlarni tabiiy gaz va toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash, qishloqlarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirib, yangi ish o'rinlarini yaratish, umuman, qishloq aholisining turmush sharoitini yaxshilash hokimliklar oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiritildi. O'tish davrida (1991-2000) bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi. Matbuot sahifalarida o'sha yillari biror tuman yoki viloyat haqida gap ketadimi, butun respublika haqidami, jurnalistlar "falon viloyat, butun O'zbekistonimiz kabi ulkan qurilish maydoniga o'xshaydi", degan jumlaning ko'p qo'llashar edi. Qurilish va obodonchilik ishlari yildan-yil kengayib, kuchayib boraveradi. Bu islohotlarning ikkinchi – faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni moderenizatsiya qilish davrida aholisi 5 mingdan ko'p bo'lgan, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy infratuzilmasi ancha rivojlanib qolgan qishloqlarga shaharcha maqomini berishga imkoniyat yaratdi.

Obodonchilik, odamlarga qulay turmush sharoiti yaratish bugungi kunda yangi safar bosqichiga ko'tarildi: endilikda qishloq joylarida namunaviy loyihalar asosida barcha qulayliklarga ega uy – joylarni qurish keng ko'lamda olib borilmoqda.

Ijtimoiy siyosat ustivorliklari haqida gapirilganda, odamlarga o'z qobiliyatlarini amalda namoyon etish, o'z ehtiyojlarini qondirishda dastlabki teng imkoniyatlar beradigan davlat – huquqiy mexanizmini yaratish vazifasi belgilanganini qayd etish lozim¹. Ijtimoiy islohotlarning birinchi bosqich tajribasini, yangi bosqich vazifalarini umumlashtirib, Prezident shunday hulosaga qiladi: "Kuchli ijtimoiy siyosat murakkab utish davrida odamlarning manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat emas. Bu, eng avvalo sermahsul mehnat qilish uchun yaxshiroq rag'bat va imkoniyatlar yaratishdan, iqtisodiy yo'l tanlash va faoliyat ko'rsatish erkinligiga bo'lgan

¹ Islom Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, 3-jild, T., "O'zbekiston", 1996y., 357-b.

kafolatli huquqni qaror toptirishdan, aholining mehnat va ijtimoiy faolligini oshirishdan ham iboratdir”

I.Karimov ijtimoiy sohani barcha yo‘nalishlarida tub islohotlarini o‘tkazishning zamini, zarur shart-sharoiti, jumladan, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning asosi deb hisoblaydi. Ijtimoiy soha –zamin yaxshi tayyorlanmasa, iqtisodiy va siyosiy islohotlar yaxshi natija bermaydi, hatto jamiyatda barqarorlik buzilib, islohotlarni utkazish imkoniyatlari pasayib ketadi. Boshqa tomondan iqtisodiyotda hamda davlat, jamiyat qurilishida o‘zgarishlar, islohotlar o‘tkazilmasa, ijtimoiy soha ham rivojlanmaydi. Jamiyat yagona ijtimoiy organizm sifatida bir yoqlamalikni mutloqo xushlamaydi. Ijtimoiy sohaning islohotlar uchun ahamiyatini I.Karimovning quyidagi so‘zlari yaxshi ochib beradi: “Biz mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ijtimoiy bazani – zaminni mustahkamlashga bog‘liq ekanini yaxshi anglab olishimiz zarur. Biz buni ijtimoiy adolat to‘g‘risida gapirganda, ma’naviyat va ahloqni qayta tiklash to‘g‘risida gapirganda esdan chiqarmasligimiz kerak. Va eng muhimi, ma’rifatsiz, ilm-fansiz erkin demokratik jamiyat, kelajagimizni qura olmaymiz, deb gapirganda esdan chiqarmasligimiz kerak”

Ijtimoiy zaminning tarkibiy unsurlarini tahlil qilib, hatto sanab o‘tirishning hojati yo‘q, ular juda ko‘p va xilma-xil. Asosiy sohalari – bu mehnat va bandlik, ijtimoiy ta’minot, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ilm-fan, sport, dam olish va h.k. Ijtimoiy zaminning eng asosiy o‘zagi – bu inson va insonlarni birlashtiruvchi turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, sinflar va etnoslar.

Shu sababdan turli ijtimoiy guruhlar haqida g‘amxo‘rlik qilish (jumladan, turli millatlar, elatlar to‘g‘risida) islohotlar konsepsiyasida munosib o‘rin egallashi lozim.

Xulosa

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarda hususan davlat, jamiyat qurilishida va yangi qonunchilik tizimini yaratishda adolat, teng huquqlilik, qonuniylik, demokratizm, insonparvarlik tamoyillari muhim ahamiyatga egadir.

Adolat (Odillik) tamoyili davlat boshqaruvida, sud-huquq tizimini yaratishda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarda hamma vaqtlarda mutafakkirlarni, olimlarni, davlat arboblarni, qiziqtirib kelgan. I bobda Sharq va G'arb mutafakkirlari asrlarida, davlat boshqaruvida adolatli bo'lish, davlat boshlig'ining, xalqning va jamiyatning oldidagi asosiy vazifalar haqida va ajoyib g'oyalar ilgari ko'rib chiqdik. Ularning asarlarini o'rganib tahlil qilib shuni aytishimiz mumkinki, adolat tamoyili o'zgarmas u hamma vaqtda, shuningdek bugungi kun uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adolat tamoyili davlat boshqaruvida xalq va jamiyat munosabatlarini yaqinlashtiradi, kundalik munosabatlarda masalan savdo-sotiqda, o'zaro do'stona davralarda insonlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Adolat, birinchi navbatda, qonunning insonparvar xolis va taraqqiyotparvar bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, adolat qonunning barchaga birday bo'lishini, fuqarolarning barcha qatlamlariga barobar xizmat qilishini, odamlarni teng ko'rishini hamda fuqarolarning ham qonun oldidagi tengligini anglatadi. Adolat ushbu jihatdan qonunning insonparvarligi va ustuvorligidir. Barchaning qonun oldida tengligini amalga oshirish davlat, jamiyat va inson munosabatlarining barqarorligini ta'minlaydi va ularni bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu ma'noda adolat ma'naviy kuchga aylanadi. U shaxs va jamiyatni, jamiyat munosabatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Insonlar esa o'z navbatida muayyan qonun yoki huquqni adolatli, teng huquqli, insonparvar mohiyatga ega deb hisoblasa unga ijobiy munosabatda bo'ladi va ixtiyoriy ravishda unga rioya etadi. Adolat tamoyili huquqda ezgulik, insonparvarlik, o'zaro tenglik va umuman axloqiylik haqqoniylikni yuzaga chiqaruvchi tamoyildir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari adolat, teng huquqlilik, qonuniylik, insonparvarlik, milliy va umuminsoniy tamoyillarni hisobga olgan holda yaratilgan.

Jamiyat hayoti va inson hayoti tenglik tamoyili asosida shakllantirish uchun adolat va xolislik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Adolat, birinchi navbatda, qonunning insonparvar xolis va taraqqiyotparvar bo'lishini taqozo etadi. Shuningdek, adolat qonunning barchaga birday bo'lishini, fuqarolarning barcha qatlamlariga barobar xizmat qilishini, odamlarni teng ko'rishini hamda fuqarolarning ham qonun oldidagi tengligini anglatadi. Adolat ushbu jihatdan qonunning insonparvarligi va ustuvorligidir. Barchaning qonun oldida tengligini amalga oshirish davlat, jamiyat va inson munosabatlarining barqarorligini ta'minlaydi va ularni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Shu ma'noda adolat ma'naviy kuchga aylanadi. U shaxs va jamiyatni, jamiyat munosabatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Inson muayyan qonun yoki huquqni adolatli deb hisoblasa unga ijobiy munosabatda bo'ladi va ixtiyoriy ravishda unga rioya etadi. Adolat tamoyili huquqda ezgulik, insonparvarlik, o'zaro tenglik va umuman axloqiylik haqqoniylikni yuzaga chiqaruvchi tamoyildir. Adolat, teng huquqlilik, insonparvarlik, tufayli huquq ma'naviylik kasb etadi

Taklif.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda o'rganish jarayonida talabalarga qonunning huquqiy tomonlarini yuridek jihatlarini o'rgatibgina qolmay uni ma'naviy tomonlarini ham tushuntirib darsni tashkil qilish kerak. Qonunlar va meyorlarni yodlab emas uni mohiyatini mazmunini teranroq tushunishga yordam beradi. Huquqshunoslik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganish fani alohida fan sifatida barcha yo'nalish talabalarga dars sifatida o'tiladi, ushbu fanni faqat huquqiy jihatdan o'rganmasdan uning ma'naviy tomonlariga ham dars soatini tashkil qilishni taklif qilaman

Sud-huquq islohotlarining takomillashtirishimiz, liberallashtirishimiz zarur bo'lgan masalalar:

1. Aholining huquqiy madaniyatini yuksak bosqichga ko'tarish, mamlakatda huquqiy ta'lim va ma'rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ'ibotini tubdan yangilash, aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishini, fuqarolarda Konstitutsiya va qonunga hurmat va itoatkorlik tuyg'usini yanada yuksaltirishni ta'minlash.

2. Sud tizimi islohotlarni yanada chuqurlashtirishimiz, qonun meyorlarni liberallashtirishimiz kerak. Sud huquq tizimini tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshirish lozim.

3. Sud huquq tizimi hodimlarining ham professionallik jihatini oshirish hamda qonunni hamma narsadan ustun qo'yish tamoyilini singdirish. Mansabdor obro'li shaxslarning iltimoslarini ko'rsatmalari, iltimoslari mintalitetimizdagi "qo'shtirnoq ichidagi tushunchalar ayrim hollarda qonundan ustun qo'yiladi. Bu bizning huquqiy-siyosiy madaniyatimizdagi axloqiy ma'naviyatimizdagi kamchiliklarga o'tmishdan qolgan illatlarga borib taqaladi bu kamchiliklarni bartaraf qilish asosiy vazifalarimizdan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.T.: “O'zbekiston ” 2014y
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi T.:“Adolat” 2012 yil
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi T.: “Adolat” 2013 yil
4. O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksi T.: “Adolat” 2013 yil
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. T.: Adolat. 2014
6. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. T.: Adolat 2014.
7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. T.: Adolat- 2014
8. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi T.:Adolat- 2014.
9. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi T.: Adolat. 2012.
10. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonuni. 1992 yil 2 iyul. (O'zbekistonning yangi konunlari, 6-son.-T.: Adolat, 1993.)
11. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi qonuni. T.: Adolat 2014.

II.Xalqaro huquqiy hujjatlar

1. «Inson xuquqlari Umumjaxon Dekloratsiyasi». «Inson xuquqlari to'g'risidagi xalqaro BILL. 1993y
2. “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro pakt. “Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnoma.T., “Adolat, 36-bet.
3. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro pakt. “Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnoma.T., “Adolat, 59-bet.
4. «Ayollar xuquqi to'g'risida»gi konventsiya. (Inson xuquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar, T-2004).

5. «Bola huquqlari to`g`risida»gi Konventsiya. Inson xuquqlari to`g`risidagi xalqaro shartnomalar T.2004.
6. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari
7. «O`zbekiston Xotin-qizlar qo`mitasi faoliyatini qo`llab-quvvatlash borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi 3434-sonli Prezident farmoni, 25.05.2004.
8. Inson huquqlari boyicha xalqaro shartnomalar. T., «Inson huquqlari milliy markaz» 2004.
9. “Korrupsiya jamiyatni emiruvchi illat” “Huquq” gazetasi 2006 №1
10. X.Sultanov. «Inson manfaati himoyasi-ustuvor vazifa» «Huquq» gazetasi 2005 yil № 45..

III. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: “O`zbekiston”, 1996.
2. Karimov I.A. Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik. 1-jild. T.: “O`zbekiston”, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin, 2–jild, T.: “O`zbekiston”, 1996.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash–davr talabi, 5–jild, T.: “O`zbekiston”, 1996.
5. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: “O`zbekiston”, 1996
6. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O`zbekiston”, 1997.
7. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasini xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. 7-jild. T.: “O`zbekiston”, 1997.
8. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O`zbekiston”, 1997
9. Karimov I.A. Yuksak huquqiy tafakkur – demokratik jamiyat taqozosi // , Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo`lida. T.6. – “O`zbekiston” 1998

10. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: "O'zbekiston", 1998.
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: "O'zbekiston", 2000.
12. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.: "O'zbekiston", 2001
13. Karimov I. Adolat – qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza. -T.: O'zbekiston. 2001.
14. Karimov I. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanqada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi ma'ruza. -T.: O'zbekiston. 2002.
15. Karimov I.A. O'zbek xalki hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. T.: "O'zbekiston", 2005
16. Karimov I.Inson, uning huquqlari va erkinliklari – oliy qadriyat. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2005 yil 10 dekabr
17. Karimov I.Bizning bosh maqsqadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. -T.: O'zbekiston. 2005.
18. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., O'zbekiston, 2010

IV. Asosiy adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» –T.: Abdulla Qodiriy Nashriyoti. 1997
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 14-tom. “Mahbub ul-qulub”dan. T.: “Fan”. 1998
3. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999
4. Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. T.: “Ma'naviyat”. 2002.
5. .Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2009.
6. A. Sher. Axloqshunoslik. T., “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” 2010., 231-b
7. Alisher Navoiy. “Xamsa”, “Yangi avlod”, 2014yil

V. Darsliklar, o`quv qo`llanmalar

1. X.T.Odilqoriev "O`zbekiston Respublikasida qonun chiqarish jarayoni" T-1995.
2. X.R.Alimov "Ma'muriy huquq" darslik T-1995.
3. X.R.Raxmonqulov "O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1 va 2 qismlariga umumiy tavsif va sharxlar, Oliy Majlisining axborotnomasi (barcha sonlari)
4. Saidov A. Tadjixanov U.«Davlat va huquq asoslari.» Darslik- T: 2001.
5. Mualliflar jamoasi. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga sharh. TDYUI. 2008.
6. 12.YU.Rustamboev “O`zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi” darslik T., 2006 y.
7. Boboiev X.B., A. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganish.- T., 2001.
8. Mualliflar jamoasi. “O`zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqi”. Darslik.T.,TDYUI.2005.
9. E.T.Xojiev “Ma'muriy huquq” darslik. T., “Ilm ziyo” T., 2006.

10.I.Zakirov.X.Raxmanqulov “Fuqarolik huquqi” 2-qism qayta ishlangan. T.,
“Ilm-ziyo-2008.

VI. Internet saytlari

1. [.www.referat.ru](http://www.referat.ru)
2. [.www.google.ru](http://www.google.ru)
3. [.www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)
4. www.ziyo.net/uz
5. www.milliy/ma'naviyat.uz
6. www.filosofia.ru
7. www.philosophy.nsc.ru
8. <http://vlibrary.freenet.uz>
9. namdumanaviyathhttp://fikir.uz/
10. www.bilim.uz
11. www.history.ru
12. www.gow.uz
13. www.edu.uz